

Davlat ijtimoiy buyurtmasini berish tartibi va shartlari to'g'risidagi

NIZOM

I. Umumiy qoidalar.

1.1. Mazkur Nizom fuqarolik jamiyati institutlariga davlat ijtimoiy buyurtmasini berish tartibi va shartlarini belgilaydi.

1.2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Davlat ijtimoiy buyurtmasi - davlat organi va fuqarolik jamiyati instituti o'rtasida shartnoma tuzish yo'li bilan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun ishlar bajarish yoki tadbirlar o'tkazishga doir davlat topshirig'i;

Parlament komissiyasi - Oliy Majlis palatalari tomonidan fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish hamda ularning mamlakatda demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishda va jamiyatni erkinlashtirishda ishtirok etishiga ko'maklashish maqsadida tuzilgan komissiya.

Jamoat fondi - Oliy Majlis palatalari tomonidan fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida tuzilgan fond va uning alohida bo'linmalari;

Fuqarolik jamiyati institutlari – jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari.

Yagona elektron platforma - fuqarolik jamiyati institutlariga davlat subsidiyalari, grantlari va ijtimoiy buyurtmalarini ajratish bilan bog'liq barcha jarayonlarning shaffofligini ta'minlashga qaratilgan asosiy imkoniyatlarni nazarda tutuvchi axborot tizimi.

Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari (keyingi o'rinlarda — davlat organlari) **kabineti** - davlat organlari tomonidan davlat buyurtmalarini Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondiga yuborish uchun elektron platformadagi sahifa;

Yagona identifikatsiya tizimi (bundan buyon matnda – OneID tizimi deb yuritiladi) - davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va tijorat tashkilotlarining turli veb-saytlari va portallaridan barcha foydalanuvchilar uchun qulay foydalanishga mo'ljallangan tizim.

1.3. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Byudjet kodeksi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi, "Jamoat fondlari to'g'risida"gi, "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunlariga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.4. Davlat ijtimoiy buyurtmalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan, yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga kiritilgan hamda bankda o'zining mustaqil hisob raqamiga, mol-mulkiga, shu mol-mulk bilan sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan fuqarolik jamiyati institutlariga Parlament komissiyasi qaroriga asosan tanlov asosida beriladi.

1.5. Nizom davlat ijtimoiy buyurtmalarini berishning quyidagi tartibi va shartlarini belgilaydi:

- Jamoat fondi tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmalari shaklida loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun mablag'larni shakllantirish va taqsimlash;

- ochiq tanlovlarni tashkil etish;

- taqdim etilgan loyihalarni hisobga olish va hisobotini yuritish;

- loyihalarni ko'rib chiqish, saralash va g'oliblarni belgilash;

- loyihalarni moliyalashtirish, ularning hisobi va hisobotini yuritish;

- tugallangan loyihalarni yakuniy monitoringini amalga oshirish;

- loyihalarni yakunlangan deb hisoblash.

1.6. Mazkur Nizom talablari ijtimoiy sheriklik subyektlari uchun majburiydir.

II. Davlat ijtimoiy buyurtmalari mablag'larini shakllantirish

2.1. Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat ijtimoiy buyurtmalari shaklida qo'llab-quvvatlash uchun mablag'lar O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti hamda qonunchilikda taqiqlanmagan

boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi va ushbu Nizomning 1-ilovasida nazarda tutilgan davlat ijtimoiy buyurtmasi ajratish sxemasiga asosan Parlament komissiyasining qaroriga muvofiq sarflanadi.

2.2. Davlat organlari o'z faoliyatining fuqarolik jamiyati institutlari qo'llab-quvvatlashni talab etadigan ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi hamda joriy moliya yilining 15-mayiga qadar kelgusi moliya yili uchun davlat ijtimoiy buyurtmalarini Jamoat fondi va uning alohida bo'linmalariga elektron platforma orqali yuboradi. Mazkur muddatdan keyin buyurtmalar qabul qilinmaydi.

2.3. Buyurtmaning namunaviy shakli ushbu Nizomning 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlanadi. Buyurtmada davlat organi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari, ishlar bajarish yoki tadbirlar o'tkazishga doir topshiriqning maqsadlari, vazifalari, shartlari hamda talab etiladigan mablag'lar miqdori, davlat organining ulushi aniq ko'rsatiladi.

2.4. Jamoat fondi buyurtmalar kelib tushish muddati tugagandan so'ng 5 ish kuni muddatda kelib tushgan buyurtmalarni umumlashtiradi va Parlament komissiyasiga yagona elektron platforma orqali yuboradi.

2.5. Parlament komissiyasi buyurtmalarni o'rganib chiqib, ularning ustuvor yo'nalishlarini, ajratiladigan mablag'lar hajmining prognoz ko'rsatkichlarini, davlat buyurtmachilarining ro'yxatini tasdiqlash hamda byudjet so'rovnomasini ishlab chiqish to'g'risida qaror qabul qiladi.

2.6. Parlament komissiyasi qarori asosida Jamoat fondi va uning alohida bo'linmalari joriy moliya yilining 1-avgustidan kechiktirmasdan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga byudjet so'rovnomalarini kiritadi.

2.7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Parlament komissiyasi tomonidan yuborilgan byudjet so'rovnomasida ko'rsatilgan mablag'lar hajmini qonunda belgilangan tartibda tegishli byudjetlarining parametrlari loyihasiga kiritadi.

2.8. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari respublika byudjet parametrlarida va mahalliy kengashlar mahalliy byudjet parametrlarida ajratiladigan mablag'lar hajmlarini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi.

2.9. Davlat ijtimoiy buyurtmasi joylashtirishga ajratilgan mablag'lar Jamoat fondi va uning alohida bo'linmalarining hisob raqamida jamlanadi va Parlament komissiyasining qaroriga muvofiq sarflanadi.

III. Davlat ijtimoiy buyurtmalarini berishda mablag'larning taqsimlanishi

3.1. Parlament komissiyasi davlat organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy sheriklikdagi loyihalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash uchun mablag'larni taqsimlaydi.

3.2. Jamoat fondi va uning alohida bo'linmalari qo'llab-quvvatlash shakllariga mos ravishda bir yilga mo'ljallangan daromadlar va xarajatlar smetasini ishlab chiqadi.

3.3. Jamoat fondi va uning alohida bo'linmalarining daromadlar va xarajatlar smetasi Parlament komissiyasi yig'ilishida ko'rib chiqilib tasdiqlanadi.

3.4. Parlament komissiyasi byudjet xarajatlar qismida tasdiqlangan mablag'lar hajmidan ijtimoiy buyurtma shaklidagi loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan mablag'larni taqsimlaydi.

3.5. Jamoat fondi va uning alohida bo'linmalari daromadlar va xarajatlar smetalari asosida Parlament komissiyasining qarorlariga muvofiq ijtimoiy buyurtma loyihalarini moliyalashtiradi.

IV. Davlat ijtimoiy buyurtmalarini berishda ochiq tanlovlarni tashkil etish

4.1. Parlament komissiyasi byudjet xarajatlar qismida tasdiqlangan mablag'lar hajmidan kelib chiqib, davlat organlaridan kelib tushgan buyurtmalarni ijtimoiy ahamiyatining dolzarbligi va loyihaga qo'shadigan davlat organining ulushiga ko'ra qayta saralaydi.

4.2. Parlament komissiyasi saralangan buyurtmalarining umumiy soni, muddati, ustuvor yo'nalishlari, maqsad va vazifalari, buyurtmachi davlat organi, ajratiladigan mablag'lar miqdorini qaror bilan tasdiqlaydi.

4.3. Parlament komissiyasi tanlovlar o'tkazish borasidagi o'z qarorini tegishincha Jamoat fondiga ijro uchun yuboradi.

4.4. Qarorga muvofiq Jamoat fondi fuqarolik jamiyati institutlarini davlat ijtimoiy buyurtmasi shaklida qo'llab-quvvatlash uchun yagona elektron platformada respublika va hududiy tanlovlar tashkil etadi.

4.5. Davlat ijtimoiy buyurtmasi ochiq tanlovlarini o'tkazish muddati kamida 30 kundan iborat bo'lishi lozim.

4.6. Jamoat fondi davlat ijtimoiy buyurtmasi berish uchun 3-ilova shaklda tanlov o'tkazish haqida ommaviy axborot vositalarida e'lon qiladi.

4.7. E'lon matnida qoida tariqasida, ijtimoiy sheriklik sohasi, buyurtmalarning ro'yxati, maqsadi, vazifa va shartlari, buyurtma umumiy byudjeti, tanlov o'tkazish muddati, hujjatlarni qabul qilishning yagona elektron platforma manzillari, telefon raqamlari ko'rsatiladi.

4.8. Tanlov e'lon qilingandan keyin Jamoat fondi va uning alohida bo'linmalari fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida keng ko'lamdagi targ'ibot ishlarini olib boradi.

V. Tanlovlarda ishtirok etish talablari va loyihalarni taqdim qilish shartlari

5.1. Talabgor tashkilotning rahbar va hisobchisi tizimda shaxsiy kabinet yaratish uchun yagona identifikatsiya tizimida jismoniy shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lishi lozim.

5.2. Yagona elektron platformada jismoniy shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan fuqarolik jamiyati institutining rahbari va hisobchisi faoliyat olib borayotgan tashkilotning elektron raqamli imzosini (bundan buyon - ERI deb yuritiladi) OneID tizimidagi kabinetiga bog'lashi lozim. Yuridik shaxs sifatida bog'lash orqali tashkilot nomidan tanlovga loyiha arizasi taqdim etiladi.

5.3. Davlat ijtimoiy buyurtmasi tanlovlarida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan hamda bankda o'zining mustaqil hisob raqamiga, mol-mulkiga, shu mol-mulk bilan sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan fuqarolik jamiyati institutlari ishtirok etishi mumkin.

5.4. Fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan ERIdan foydalanish, yagona elektron platformada tasdiqlanadigan hujjatlarni, tuziladigan shartnomalarni haqiqiy deb topish uchun asos hisoblanadi.

5.5. Davlat ijtimoiy buyurtmasi tanlovida ishtirok etish uchun fuqarolik jamiyati institutlari quyidagilarni amalga oshiradi:

- yagona elektron platformadan ro'yxatdan o'tish;
- elektron shakldagi arizani Nizomining 4-ilovasiga muvofiq to'ldirish;
- tashkilotning nizomi yoki ustavi, joriy moliyaviy hisobotlari (balans, asosiy vositalar va moddiy texnikalar ro'yxati) hamda qo'llab-quvvatlash va tavsiya xatlari elektron nusxasini tizimga yuklash;

- yagona elektron platformada davlat ijtimoiy buyurtmasini ajratish bo'yicha shartnomani imzolash;

- ijtimoiy buyurtma loyihasini uning maqsadi va kutilayotgan natijalariga muvofiq amalga oshirish;

- ijtimoiy buyurtma loyihasining bajarilishi bo'yicha choraklik, yarim yillik hamda yakuniy tahliliy va moliyaviy hisobotlarni o'sib borish tartibida taqdim qilish.

5.6. Talabgor loyiha arizasida quyidagilarni ko'rsatishi shart:

- tanlovlarda avval g'olib bo'lmagan fuqarolik jamiyati institutlari taqdim etilayotgan loyihada so'ralayotgan umumiy summaning 5 foiz miqdordagi o'z ulushi summasini;

- ikki marotaba g'olib deb topilgan fuqarolik jamiyati institutlari loyihani amalga oshirish bo'yicha Jamoat fondidan so'ralayotgan umumiy summaning 10 foizidan kam bo'lmagan miqdorda o'z ulushi summasini;

- uch va undan ko'p marotaba tanlovlarda g'olib bo'lgan fuqarolik jamiyati institutlari loyihani amalga oshirish bo'yicha Jamoat fondidan so'ralayotgan umumiy summaning 20 foizidan kam bo'lmagan miqdorda o'z ulushi summasini ko'rsatishi.

5.7. Quyidagi fuqarolik jamiyati institutlarining loyihalarini yagona elektron platforma avtomat ravishda tanlovda ishtirok etishiga yo'l qo'ymaydi:

- tugatilgan, tugatish ishi yurituvchi nihoyasiga yetkazilmagan yoki tashkil etish jarayoni tamomlanmagan;

- soliq va majburiy yig'implardan qarzдорligi mavjud bo'lgan;

- davlat granti, davlat ijtimoiy buyurtmasi loyihasini amalga oshirayotgan va loyihasi yakunlangan deb topilmagan fuqarolik jamiyati institutlarining loyihalari;

– ilgari davlat subsidiyasi, granti va ijtimoiy buyurtmasi bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarni lozim darajada bajarmagan hamda Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondidan qarzдорligi mavjud bo'lgan tashkilotlar;

– tanlovga taqdim etilgan loyiha mazmun-mohiyatiga mos bo'lgan loyihani xorijiy davlatlarning yoki xalqaro tashkilotlarning va boshqa manbalar mablag'lari hisobiga amalga oshirayotgan tashkilotlar.

5.8. Ushbu Nizomning 5.7. bandida qayd etilgan kamchiliklar mavjud bo'lsa, talabgorning tanlovga qo'yilmaganligi sababi haqida talabgorning shaxsiy kabinetida xabar beriladi.

5.9. Platformadan foydalanish tartib-qoidalari tizimda joylashtirilgan "Elektron platformadan foydalanish to'g'risida"gi yo'riqnoma va Parlament komissiyasi tomonidan tasdiqlangan Nizomga asosan amalga oshiriladi.

VI. Taqdim etilgan loyihalarni hisobga olish va hisobotini yuritish

6.1. Tanlovga qabul qilingan loyihalarni hisobga olish va hisobotini yuritish ishlari yagona elektron platformada amalga oshiriladi va avtomatik ravishda quyidagi shaklda ro'yxatga olinadi:

15/1-IB/25-01/1

15	-	tanlov o'tkazuvchining hududiy identifikatsiya raqami
1	-	tanlov raqami
IB	-	qo'llab-quvvatlash shakli (ijtimoiy buyurtma)
25	-	joriy yil raqami
01	-	talabgorning hududiy identifikatsiya raqami
1	-	loyihani ro'yxatga olish tartib raqami

6.2. Fuqarolik jamiyati institutlari loyihalarining statistik hisobi va hisoboti yagona elektron platformada yuritiladi.

6.3. Tanlov yakunlangandan keyin Jamoat fondi va uning alohida bo'linmalari qabul qilingan loyihalarning barcha maydonlari to'liq va to'g'ri to'ldirilganligi, tanlov mavzusiga mosligi hamda oldin amalga oshirgan dastur va loyihalardan qarzдорligi mavjudligini o'rganib chiqib, 5 kun muddat ichida talabgor tashkilotni nomini oshkor qiluvchi ma'lumotlar berkitilgan holda Parlament komissiyasi raisining shaxsiy kabinetiga yuboradi.

VII. Loyihalarni ko'rib chiqish va g'oliblarni aniqlash mezonlari

7.1. Parlament komissiyasi o'z a'zolari orasidan kasbiy va hayotiy tajribaga ega bo'lgan 5 kishidan iborat Ishchi guruhini va ishchi guruh rahbarini qaror asosida tasdiqlaydi.

7.2. Ishchi guruhning asosiy vazifasi fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan taqdim etilgan arizalarni tanlovning maqsadi, vazifalari va talablariga hamda boshqa mezonlarga mosligini aniqlashdan iborat bo'ladi.

7.3. Parlament komissiyasi raisi shaxsiy kabinetiga kelib tushgan loyihalarni 2 kun muddatda ko'rib chiqadi va Ishchi guruh rahbariga yuboradi.

7.4. Ishchi guruh a'zolari loyihalarni qabul qilgan kundan keyin 10 kun muddatda baholanadi. Ishchi guruh a'zolari har bir talabgor tashkilotning loyihada aniqlangan kamchiliklari yuzasidan izoh beradi.

7.5. Loyihalarni ko'rib chiqish uchun qo'shimcha materiallar so'rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'lgan hollarda, ularni ko'rib chiqish muddatlari Parlament komissiyasi raisi tomonidan istisno tariqasida 5 kuniga uzaytirilishi mumkin.

7.6. Ishchi guruh loyihalarni quyidagi mezonlarga asosan 5 ballik tizimda baholaydi:

a) Talabgor tashkilotning faoliyatini qonun hujjatlariga hamda tanlov maqsadlariga muvofiqligi:

- talabgor tashkilotning ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishdagi tajribasi;
- loyiha tanlov mavzusiga hamda yo'nalishlaridan biriga muvofiq kelishi;
- talabgor tashkilot tomonidan loyihani amalga oshira olish imkoniyati;
- loyihani amalga oshirish talabgor tashkilotning ustavi (nizomi) talablariga muvofiqligi.

b) Loyiha natijadorligini aniqlash:

- kutilayotgan natijaning sifat va miqdoriy ko'lami hamda uning samarasi;
- loyihani amalga oshirishning mahsuli va ijtimoiy ta'siri;

- loyiha maqsadli guruhining shakllantirilganligi;
- d) Loyihani amalga oshirishda ijtimoiy sheriklik:
 - loyiha doirasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda davlat organlariga taqdim etishning ko'zda tutilganligi;
 - davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar bilan birgalikda tadbirlar, maslahatlashuvlar va muzokaralarni o'tkazishning nazarda tutilganligi;
 - davlat organlari bilan o'quv-uslubiy, axborot, maslahat va tashkiliy jihatdan o'zaro qo'llab-quvvatlash hamda axborot almashish tizimining nazarda tutilganligi.
- e) Loyiha byudjetining muvofiqligi va uni asoslantirilganligi:
 - moddiy texnik bazaga egaligi;
 - talabgor tashkilotning loyihada so'ralayotgan pul mablag'lari yoki moddiy resurslar umumiy summasining 20 foizidan kam bo'lmagan miqdordagi shaxsiy yoki hamkorlar ulushining mavjudligi;
 - loyiha smeta xarajatlari maqsadli tuzilganligi, ortiqcha xarajatlarga yo'l qo'yilmaganligi;
 - loyiha ijrochilarining mehnatiga to'lanadigan haq, moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltirilgan mablag' va boshqa xarajatlarning (aloqa, kommunal xizmat, safar va bank xarajatlari) yig'indisi so'ralgan ijtimoiy buyurtma mablag'i jami summasining 30 foizidan ko'p emasligi hamda asosiy mablag'ning 70 foizi ijtimoiy va umum ahamiyatga molik maqsadlarga yo'naltirilganligi.
- f) Loyihaning ijtimoiy ahamiyati va haqqoniyligi:
 - loyihani amalga oshirishning hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ta'siri;
 - loyiha doirasida ko'tarilgan dolzarb masalani hal etish mexanizmining aniq ko'rsatilganligi;
 - loyiha jamoasining shakllantirilganligi;
 - taqdim etilgan loyihaning ijtimoiy dolzarbliigi.

7.7. Parlament komissiyasi loyihalarni ko'rib chiqish, ijtimoiy ahamiyatini aniqlash jarayoniga davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlaridan tegishli yo'nalishlar bo'yicha tajribali ekspertlarni jalb qilishi mumkin. Ekspertlarning vazifalari Parlament komissiyasi tomonidan belgilanadi va Nizom bilan tasdiqlanadi.

7.8. Barcha ishchi guruh a'zolarining baholash natijalari bo'yicha ballar yig'indisi Ishchi guruh rahbarining shaxsiy kabinetida jamlanadi.

7.9. Ishchi guruh rahbari tanlovga kelib tushgan loyihalarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha ballar yig'indisi (har bir loyiha uchun alohida) ro'yxatini Parlament komissiyasiga yuboradi.

7.10. Ballar yig'indisi ro'yxati tizimda eng yuqori ball olgan tashkilotdan boshlanib kamayib borish uslubida shakllanadi.

7.11. Parlament komissiyasi tomonidan g'oliblarni aniqlash:

- tizim orqali eng yuqori ball olgan tashkilotdan quyiga qarab g'olib aniqlanadi;
- tanlovda g'olib deb topilgan talabgor tashkilotning loyihasida ko'rsatilgan vazifalarning hajmidan kelib chiqib, Parlament komissiyasi qarori asosida loyiha byudjetiga o'zgartirish kiritilishi mumkin.

- g'oliblikka tavsiya qilingan loyihalar ichida davlat ijtimoiy buyurtmasi olishga to'sqinlik qiluvchi omillar aniqlansa va omillar o'z tasdig'ini topsa, Komissiya qarori asosida g'oliblikka nomzodlar ichidan chiqariladi;

- chiqarilgan talabgor tashkilot o'rniga tizimda g'oliblikka tavsiya etilgan tashkilotlar ro'yxatidan keyingi pog'onadagi talabgor loyihasi ko'rib chiqiladi va g'olib deb topiladi.

7.12. G'olib bo'lgan tashkilotlar ro'yxati, buyurtmachi davlat organlari nomi, har bir tashkilotga ajratilgan mablag' hajmi, loyihalarni amalga oshirish muddati ko'rsatilgan holda Parlament komissiyasi a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qaror qabul qilinadi.

Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida Parlament komissiyasi a'zolari saylangan yoki tayinlangan hududida amalga oshirilishi belgilangan ijtimoiy buyurtma loyihasi uchun bergan ovozi hisobga olinmaydi.

Qarorlarning ko'chirma nusxalari loyihalarni moliyalashtirish uchun tegishincha Jamoat fondi ijro etuvchi devoniga, alohida bo'linmalarga va boshqa ijrochilarga yuboriladi.

Qarorda ko'rsatilgan barcha ijrochilarga qaror ijrosini ta'minlash majburiy hisoblanadi.

VIII. Loyihalarni moliyalashtirish, amalga oshirish hamda hisobini yuritish

8.1. Parlament komissiyasi qarorining ko'chirma nusxasi Jamoat fondi Ijro etuvchi devoniga kelib tushgan kundan e'tiboran 3 ish kuni muddatida g'oliblar ro'yxatini yagona elektron platformaga joylashtiradi.

8.2. Jamoat fondi va uning alohida bo'linmalari davlat ijtimoiy buyurtmasi g'olibi sertifikatini 5 kun muddatda tayyorlaydi. G'olib bo'lgan tashkilot g'oliblik sertifikatini tizimdagi shaxsiy kabinetidan yuklab oladi.

Sertifikatning namunaviy shakli ushbu Nizomning 5-ilovasiga muvofiq tasdiqlanadi.

8.3. Loyihani moliyalashtirishga tanlovga taqdim etilgan loyiha va Parlament komissiyasining loyihani moliyalashtirish to'g'risidagi qarori hamda Jamoat fondi, fuqarolik jamiyati instituti va buyurtmachi davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnoma huquqiy asos bo'ladi.

8.4. Yagona elektron platformada o'zaro kelishuv asosida Jamoat fondi yoki uning alohida bo'linmalari, fuqarolik jamiyati instituti va buyurtma bergan davlat organi o'rtasida 15 ish kunida davlat ijtimoiy buyurtmasini amalga oshirish bo'yicha yagona elektron platformada uch tomonlama ijtimoiy sheriklik shartnomasi tuziladi.

Fuqarolik jamiyati institutlariga davlat ijtimoiy buyurtmasini ajratish to'g'risidagi uch tomonlama shartnoma imzolangandan keyin 5 ish kunida moliyalashtiriladi.

Davlat ijtimoiy buyurtmasini ajratish to'g'risidagi uch tomonlama shartnomaning namunaviy shakli ushbu Nizomning 6 va 7-ilovalariga muvofiq tasdiqlanadi.

Parlament komissiyasi qarori bilan g'olib tashkilot arizasida so'ralgan mablag'dan kam mablag' ajratilgan taqdirda, Jamoat fondi loyihaning xususiyatidan kelib chiqqan holda o'zgartirilgan xarajatlar smetasini tayyorlab yagona elektron platforma orqali yuboradi.

Parlament komissiyasining davlat ijtimoiy buyurtmasini ajratish bo'yicha qarori tasdiqlangan kundan e'tiboran loyihani amalga oshirish boshlangan deb hisoblanadi va shartnomada ko'rsatilgan muddatda yakunlanadi.

Loyihani amalga oshirish muddati Parlament komissiyasi yoki Jamoat fondi tomonidan Fuqarolik jamiyati institutlarining asoslantirilgan sabablariga ko'ra uzaytirilishi yoki xarajatlar smetasiga o'zgartirish kiritilishi mumkin. Loyiha bo'yicha barcha o'zgartirishlar yuzasidan murojaatlar tizim orqali almashiladi.

8.5. Jamoat fondi va uning alohida bo'linmalari davlat ijtimoiy buyurtmasi amalga oshirilayotganda quyidagi huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi:

- mablag'larni hisob raqamga naqd pulsiz o'tkazib berish yo'li bilan amalga oshirish;
- Parlament komissiyasiga taqdim etilgan loyihalarni davlat ijtimoiy buyurtmasi ajratish to'g'risidagi shartnomaga ilova qilish va asos sifatida olish;
- loyiha bilan bog'liq barcha hujjatlarni talab qilib olish;
- loyihani amalga oshirish jarayonini bevosita va bilvosita usullar bilan monitoring qilib borish;
- loyihani amalga oshirish jarayonida o'tkazilgan tadbirlarning, bajarilgan ishlarning, ko'rsatilgan xizmatlarning moliyaviy mablag'lari manbasi sifatida Jamoat fondi va Parlament komissiyasi nomini qayd etishni talab qilish;
- davlat ijtimoiy buyurtmasi oluvchining moliyaviy nochorligi yoki tugatilish jarayonida bo'lgan holatlarda mablag'larni qaytarib olish;
- davlat ijtimoiy buyurtmasi mablag'lari hisobidan sotib olingan tovar-moddiy boyliklar, jihozlar va boshqa uskunalarining saqlanishini tekshirish va inventarizatsiya qilish;
- davlat ijtimoiy buyurtmasi loyihasi doirasida amalga oshirgan ishlarini va erishgan yutuqlarini keng targ'ib etish;
- davlat ijtimoiy buyurtmasi va uning mablag'i hisobiga sotib olingan moddiy texnik-bazani uchinchi shaxslarga o'tkazmaslik hamda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti oldidagi majburiyatlarini bajarishga yo'naltirmaslikni talab qilish;
- loyihada nazarda tutilgan faoliyati bo'yicha tegishli maxsus ruxsatnoma (litsenziya) olishi bilan bog'liq javobgarlikni o'z zimmasiga olmaslik;
- davlat ijtimoiy buyurtmasi loyihasini amalga oshirish yoki boshqa har qanday maqsadlar uchun qo'shimcha qo'llab-quvvatlash majburiyatini olmaslik;
- davlat ijtimoiy buyurtmasi loyihasini amalga oshirish bo'yicha yakuniy hisobotlarga ko'ra, ishlatilmay qolgan, ortiqcha yoki maqsadsiz sarflangan deb topilgan mablag'larni qaytarib olish;
- davlat ijtimoiy buyurtmasi amalga oshirishdan ortib qolgan, amalga oshirish muddati

tugagandan so'ng sarflangan mablag'larini 10 bank ish kunida Jamoat fondi hisob raqamiga qaytarishni talab qilish.

8.6. Fuqarolik jamiyati institutlari davlat ijtimoiy buyurtmasini amalga oshirish jarayonida quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

- tasdiqlangan xarajatlar smetasi doirasida mablag'larni mustaqil tasarruf etish;
- davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan mustaqil ijtimoiy sheriklik aloqalarini o'rnatish;
- fuqarolik jamiyati instituti bir vaqtning o'zida boshqa turdagi davlat ko'magi asosida (davlat subsidiyasi va davlat granti) faoliyat yuritayotgan bo'lsa, agar u ijtimoiy buyurtma loyihasiga jalb qilingan bo'lsa, shtat asosida ishlovchi xodimiga oylik ish haqining 30 foizidan oshmagan miqdorda qo'shimcha ish haqi to'lash;
- loyihani amalga oshirish jarayonida uning ko'lamini yanada kengaytirish maqsadida tadbirkorlik subyektlari, homiylik va qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa mablag'larni jalb etish;
- Jamoat fondining va uning alohida bo'linmalari ruxsatisiz, tasdiqlangan xarajatlar smetasining tegishli moddasi miqdorining 5 foizigacha bo'lgan qismini o'zgartirib sarflashi mumkin, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar qismi bundan mustasno.

8.7. Fuqarolik jamiyati instituti davlat ijtimoiy buyurtmasi loyihasini amalga oshirishda quyidagi majburiyatlarga ega bo'ladi:

- mazkur nizom talablariga, shartnoma shartlariga va qonun hujjatlari talablariga qat'iy rioya etish;
- loyiha maqsadi va undan kutilayotgan natijalarga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlash;
- loyihani amalga oshirish jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish;
- tovar, ish va xizmat xaridlarini qonun hujjatlari talablariga asosan amalga oshirish, sotib olingan jihozlar, moddiy-texnik boyliklar va uskunalarni o'z balansiga qabul qilish hamda ularni bus-butun saqlanishini ta'minlash;
- qayta tashkil etilishi, tugatilishi, rahbar yoki bosh hisobchining almashishi, huquqiy maqomining, joylashgan manzilining o'zgarishi borasidagi ma'lumotlarni mazkur o'zgarishlar amalga oshirilgandan keyin 10 kun ichida Jamoat fondini yozma ravishda xabardor qilish;
- mablag'larni tasdiqlangan xarajatlar smetasining har bir moddasiga to'liq rioya qilgan holda sarflash;
- birlamchi buxgalteriya hujjatlarini, shu jumladan, sotib olingan jihozlar, moddiy-texnik boyliklar va uskunalarni tasdiqlovchi barcha hujjatlarni o'zida saqlash (shartnoma, hisob-faktura, to'lov hujjatlari, bojxona deklaratsiyasi va h.k.);
- davlat ijtimoiy buyurtmasi mablag'lari hisobiga faqat yangi jihozlar, moddiy-texnik boyliklar va uskunalar sotib olish;
- o'g'rilik, yong'in va shunga o'xshash boshqa noxush holatlar oqibatida ijtimoiy buyurtma mablag'lari hisobiga sotib olingan jihozlar, moddiy-texnik boyliklar va uskunalar yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlarning oldini olish choralarini ko'rish;
- loyihani amalga oshirish jarayonida uning ko'lamini yanada kengaytirish maqsadida tadbirkorlik subyektlari, homiylik va qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa mablag'larni jalb etish;
- loyiha doirasida mamlakatda amalga oshirilayotgan yirik ijtimoiy dasturlar va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hududiy dasturlarini amalga oshirishda faol ishtirok etish;
- loyihaning barcha tadbirlarida–konferensiyalarda, xalqaro seminarlarda, e'lonlarda, bayonotlarda, ommaviy axborot vositalarida loyiha Jamoat fondi hamda Parlament komissiyasi tomonidan qo'llab-quvvatlanganligini qayd etish. Agar qayd etilmagan holatlar aniqlanganda shu maqsadlarga sarflangan mablag'lar qaytarib olinadi;
- loyihani amalga oshirishdan ortib qolgan, loyihani amalga oshirish muddati tugagandan so'ng sarflangan davlat ijtimoiy buyurtmasi mablag'larini 10 bank ish kunida Jamoat fondi hisob raqamiga qaytarish.

8.8. Loyihaning amalga oshirilishi bo'yicha hisobotlarni yagona elektron platforma orqali Jamoat fondi va uning alohida bo'linmalariga taqdim etish:

- davlat ijtimoiy buyurtmasi loyihasining bajarilishi bo'yicha choraklik, yarim yillik hamda yakuniy tahliliy va moliyaviy hisobotlarni o'sib borish tartibida taqdim qilib boradi;
- har chorak yakuni bo'yicha tahliliy va moliyaviy hisobotlar hamda loyihani amalga oshirish

muddati tugagandan so'ng 15 kundan oshmagan muddatda yakuniy tahliliy va moliyaviy hisobotlarni barcha birlamchi hujjatlarning nusxalari bilan elektron platforma orqali topshiradi;

- tahliliy hisobotda loyiha doirasida o'tkazilgan tadbirlarning dasturi, tarqatma materiali, ishtirokchilar ro'yxati, bosma va elektron materiali, o'quv dasturi va mahsulotlarining namunasi, OAVda chop etilgan ma'lumotlari hamda boshqa tasdiqlovchi hujjatlarning namunalari taqdim etiladi.

- moliyaviy hisobotga xarajatlar smetasiga muvofiq xarajatlarni tasdiqlovchi birlamchi hujjatlarining nusxalari (sotib olingan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlarning shartnomalari, hisob-fakturalari, yuk xatlari, bo'nak hisobotlari, ish haqi qaydnomalari, yo'l varaqalari, bank hisob raqamidan ko'chirma yoki to'lov topshiriqnomalari va boshqalarning nusxalari) ilova qilinadi.

Sarf xarajatlar smetasida ko'rsatilmagan, birlamchi hujjatlari mavjud bo'lmagan yoki taqdim etilmagan holatda sarflangan mablag'lar maqsadsiz ishlatilgan deb topiladi hamda Jamoat fondiga qaytariladi.

8.9. Parlament komissiyasi, Jamoat fondi yoki ular tomonidan vakolat berilgan shaxslar hujjatlarni saqlash muddati davomida monitoring, audit, taftish tekshiruvlarni o'tkazish va ma'lumotlarni olish maqsadida ijtimoiy buyurtmaga daxldor bo'lgan har qanday birlamchi buxgalteriya hujjatlari va hisob-ma'lumotlari bilan tanishib chiqish huquqiga egadir. Bunda:

- fuqarolik jamiyati institutlari Jamoat fondining talabiga binoan, yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarning nusxalarini tezkor taqdim etish, shuningdek Jamoat fondi va uning alohida bo'linmalari talabi bo'yicha davlat ijtimoiy buyurtmasi mablag'lari hisobidan oylik ish haqi olayotgan xodimlari bilan suhbatlashish imkoniyatini o'z vaqtida ta'minlashi;

- sudda da'vo qo'zg'atish, ish ko'rish, audit yoki taftish o'tkazish zaruriyati paydo bo'lgan taqdirda, fuqarolik jamiyati institutlari sudda ish ko'rishlar, da'vo muddatlari tugashigacha, audit yoki taftish o'tkazish jarayonida aniqlangan tartib buzilishlar bartaraf qilinganicha hisobga olish ma'lumotlarini saqlashi;

- Jamoat fondi loyihaga taalluqli bo'lgan ayrim hisobga olish hujjatlarining asl nusxalarini Jamoat fondi va uning alohida bo'linmalariga yoki u tomonidan vakolat berilgan shaxsga ularni saqlashga topshirilishini talab qilishi mumkin va bunday talablar fuqarolik jamiyati instituti tomonidan bajarilishi shart.

8.10. Fuqarolik jamiyati institutlari davlat ijtimoiy buyurtmasi mablag'lariga tovarlar (ishlar va xizmatlar)ni sotib olishni O'zbekiston Respublikasining "Davlat haridlari to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlarida korporativ buyurtmachilarga belgilangan talablarga muvofiq amalga oshiradi.

Ijtimoiy ahamiyati yuqori va amalga oshirish muddati qisqa bo'lgan loyihalar doirasidagi xaridlar Parlament komissiyasi yoki Jamoat fondining roziligi bilan ichki tanlovlar asosida amalga oshirilishi mumkin.

IX. Davlat ijtimoiy buyurtma shartnomasining to'xtatib qo'yilishi va bekor qilinishi

9.1. Jamoat fondi va uning alohida bo'linmalari tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasi shartnomasini amal qilish muddati tugamasidan avval loyihani ijro etilishi to'xtatib qo'yilishi yoki davlat ijtimoiy buyurtmasi ajratish to'g'risidagi shartnoma bekor qilinishi mumkin.

9.2. Quyidagi hollarda shartnomaning amal qilishi muddati to'xtatib qo'yiladi yoki davlat granti ajratish to'g'risidagi shartnoma bir tomonlama bekor qilinadi va davlat ijtimoiy buyurtmasi mablag'lari qaytarib olinadi:

- ushbu tartibda va shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlar to'liq yoki qisman bajarilmaganda;
- tashkilotning loyiha maqsadlarini ta'minlashga qobiliyatsizligi yoki loyiha maqsadlariga erishish uchun munosib bo'lmagan ijrochi ekanligi ma'lum bo'lganda;

- tahlil va moliyaviy hisobotlar belgilangan muddatlarda taqdim etilmaganda yoki o'rnatilgan tartibda taqdim etilmaganda;

- noto'g'ri, haqiqiy bo'lmagan hisobotlar va hujjatlar, soxta hujjatlar yoki axborotlar taqdim qilinganda;

- mablag'lar maqsadsiz noqonuniy sarflanganda.

9.3. Davlat ijtimoiy buyurtmasi ajratish shartnomasining amal qilishini to'xtatib qo'yish va bekor qilinishi borasida tomonlar yozma ravishda ogohlantiriladi. Bunda:

- davlat ijtimoiy buyurtmasi mablag‘laridan foydalanish to‘xtatilganligi to‘g‘risidagi yozma ma‘lumot davlat ijtimoiy buyurtmasi oluvchiga va unga xizmat ko‘rsatayotgan bankka yuboriladi;
- shartnomaning amal qilishi to‘xtatib qo‘yilgandan so‘ng, davlat ijtimoiy buyurtmasi olgan Fuqarolik jamiyati instituti tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasi mablag‘laridan foydalanish qat‘iyan taqiqlanadi va bu muddatda amalga oshirilgan xarajatlar maqsadsiz deb hisoblanadi;
- shartnoma bekor qilinganda davlat ijtimoiy buyurtmasi oluvchining faoliyat ko‘rsatishdan manfaatdorligi yoki imkoniyati hisobga olinmasdan mablag‘ qaytarib olinadi;
- loyihani amalga oshirish to‘xtatib qo‘yilgan muddat davlat ijtimoiy buyurtmasi loyihasini amalga oshirish muddatiga kiritilmaydi;
- fuqarolik jamiyati instituti davlat ijtimoiy buyurtmasi mablag‘larini sarflanganligi yuzasidan auditorlik tekshiruvini davlat ijtimoiy buyurtmasi mablag‘lari hisobidan o‘tkazmaydi.

X. Loyihalarning amalga oshirilganligini monitoring qilish

10.1. Fuqarolik jamiyati institutlari loyihalarining amalga oshirilishi nazorati bevosita topshirilgan hisobotlar asosida tahliliy (kameral) va hujjatli monitoring shakllarida amalga oshiriladi.

10.2. Jamoat fondi mutaxassislari ijtimoiy buyurtma bo‘yicha taqdim etilgan tahliliy va moliyaviy hisobotlarni monitoringdan o‘tkaziladi.

10.3. Monitoring davomida ijtimoiy buyurtmani bajaruvchi tomonidan qonun yoki shartnoma talablarining buzilishi aniqlanganda, darhol tegishli hujjatlar Parlament komissiyasining Ajratilgan mablag‘larning maqsadli va samarali ishlatilishini monitoring qilish bo‘yicha ishchi guruhiga taqdim etiladi.

Ishchi guruh taqdim etilgan hujjatlarni o‘rganib chiqib, qonun buzilishiga yo‘l qo‘ygan fuqarolik jamiyati institutini aniqlangan kamchiliklarni 10 kun muddatda bartaraf etish bo‘yicha ogohlantiradi.

Aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilmagan holda ijtimoiy buyurtmani bajaruvchiga chora ko‘rish bo‘yicha Parlament komissiyasi qaror qabul qilishi mumkin.

10.4. Tahliliy nazorat natijasida xarajatlar smetasida ko‘rsatilgan miqdordan ortiqcha sarflangan, ishlatilmay qolgan, iqtisod qilingan mablag‘lar fuqarolik jamiyati instituti tomonidan 10 kunlik muddat ichida Jamoat fondining hisob raqamiga qaytariladi.

XI. Loyihalarni yakunlangan deb hisoblash

11.1. Loyihalarni amalga oshirish muddati tugagandan, ushbu Nizom bilan belgilangan hisobotlar topshirilib, tahliliy nazorat va hujjatli monitoring o‘tkazilib, kamchiliklar aniqlanmagan bo‘lsa loyihalar amalga oshirish tugagan hisoblanadi.

11.2. Amalga oshirish muddati tugagan loyihalarning elektron hujjatlari yagona elektron platforma bazasida hisobotlar kelib tushgan sanadan boshlab 6 oygacha saqlanadi;

Yagona elektron platforma bazasiga kelib tushgan hisobotlar Jamoat fondi va uning alohida bo‘linmalari tomonidan varaqlanadi, tikiladi va 5 yil davomida saqlanadi.

11.3. Jamoat fondi saqlash muddatidan keyin barcha hujjatlarni belgilangan tartibda arxivga topshiradi.

XII. Ushbu Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish

Ushbu Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar Parlament komissiyasi tomonidan kiritiladi.

Davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish sxemasi

I. Davlat ijtimoiy buyurtmalari uchun mablag'larni shakllantirish

Davlat organlari o'z faoliyatining fuqarolik jamiyati institutlari qo'llab-quvvatlashini talab etadigan ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi hamda kelgusi moliya yili uchun davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish to'g'risida joriy moliya yilining 15-mayga qadar Jamoat fondi va uning alohida bo'linmalariga yagona elektron platforma orqali o'z buyurtmalarini yuboradi.
Jamoat fondi va uning alohida bo'linmalari davlat organlarining yuborgan buyurtmalari 15-iyungacha umumlashtiriladi va Parlament komissiyasiga taqdim etadi.
Parlament komissiyasi 1-iyuligacha umumlashgan buyurtmalarni o'rganib chiqib, ularning ustuvor yo'nalishlarini, ajratiladigan mablag'lar hajmining prognoz ko'rsatkichlarini tasdiqlaydi.
Parlament komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga 1-avgustgacha bo'lgan muddatda davlat ijtimoiy buyurtmalari prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha byudjet so'rovnomasini yuboradi.
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari davlat ijtimoiy buyurtmalariga mablag'lar ajratish uchun takliflar yuzasidan byudjet so'rovnomalarini ko'rib chiqib, Davlat byudjeti va mahalliy byudjet loyihalariga tegishli mablag'lar hajmini kiritadi.
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Davlat byudjetini va mahalliy kengashlar mahalliy byudjetini tasdiqlayotganda Parlament komissiyasining mablag'larni ajratish to'g'risidagi taklifini ko'rib chiqadi hamda mablag'lar hajmlarini tasdiqlaydi.

II. Fuqarolik jamiyati institutlariga ijtimoiy buyurtmalarni berish

Parlament komissiyasi Jamoat fond va uning alohida bo'linmalarining davlat ijtimoiy buyurtmasiga ajratiladigan mablag'lar hajmini, ochiq tanlovlarning umumiy sonini, mavzu va yo'nalishlarini, tanlov muddatlarini tasdiqlaydi.
Jamoat fondi va uning alohida bo'linmalari fuqarolik jamiyati institutlariga davlat ijtimoiy buyurtmasini berish to'g'risida tanlovlar tashkil etadi.
Jamoat fondi fuqarolik jamiyati institutlaridan yagona elektron platforma orqali tanlovga kelib tushgan loyihalarni Parlament komissiyasiga ko'rib chiqish uchun topshiradi.
Parlament komissiyasi fuqarolik jamiyati institutlaridan davlat ijtimoiy buyurtmalari uchun taqdim etilgan loyihalarini o'rganib chiqib, g'olib loyihalarni aniqlaydi, o'z qarorini qabul qiladi.
Jamoat fondi va uning alohida bo'linmalari g'olib bo'lgan ijtimoiy buyurtma loyihalarini Parlament komissiyasi qarori asosida moliyalashtiradi.
Ijtimoiy buyurtmalarni amalga oshiruvchilar choraklik, yarim yillik, yillik va yakuniy hisobotlarni Jamoat fondiga topshiradi.
Davlat ijtimoiy buyurtmalarini amalga oshirilishi ushbu Nizomda belgilangan tartibda tegishli monitoringlar o'tkazib bo'lingandan keyin yakunlangan deb hisoblanadi va belgilangan tartibda davlat arxiviga topshiriladi.

Kelgusi moliya yili uchun davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish to'g'risida

BUYURTMA

(faqat davlat tashkilotlari uchun)

Davlat tashkilotining nomi	
Davlat organi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari (tashkilot nizomiga asosan)	
Buyurtmaning maqsadi	
Buyurtmaning vazifalari	
Buyurtmaning shartlari	
Buyurtmani bajarishdan kutilayotgan natija	
Jamoat fondidan so'ralayotgan mablag' miqdori (so'mda)	
Davlat organining ulushi	
Buyurtmani davlat ijtimoiy dasturlariga, hududiy rivojlantirish dasturlariga kiritilganligi yoki kiritish imkoniyatining mavjudligi	

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Jamoat fondi

mavzusida

Davlat ijtimoiy buyurtmasi joylashtirish uchun tanlov e'lon qiladi

- Tanlovda davlat ro'yxatidan o'tgan fuqarolik jamiyati institutlarining quyidagi yo'nalish (nominatsiya) lardagi loyihalari ko'rib chiqish uchun qabul qilinadi:

1. _____
2. _____
3. _____
4. _____
5. _____
6. _____
7. _____
8. _____

Hujjatlar elektron shaklda _____ yil _____ dan _____ gacha qabul qilinadi.

Tanlovda ishtirok etish shartlari va tanlov hujjatlarining namunalari bilan Jamoat fondining www.ngo.gov.uz rasmiy elektron platformasi orqali tanishish mumkin.

Ma'lumot uchun tel: _____

Davlat ijtimoiy buyurtmasini joylashtirish tanlovida ishtirok etish uchun

ning

(fuqarolik jamiyati institutining nomi)

ARIZA (TALABNOMASI)si

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR	
1.1. Talabgor tashkilotning nomi	
1.2. Faoliyat hududi	
1.3. Alohida bo'linmalar	
1.4. Doimiy xodimlar soni	
1.5. Jamoatchilik asosida ishlaydigan xodimlar soni	
1.6. Jami xodimlar soni	
1.7. Tashkilotning joylashuvi	
1.8. Tashkilotning yuridik manzili	
1.9. Tashkilotning haqiqiy manzili	
1.10. Rahbarning F.I.Sh.	
1.11. Rahbarning telefon raqamlari	
1.12. Rahbarning STIR	
1.13. Rahbarning elektron pochta manzili	
1.14. Buxgalterning F.I.Sh.	
1.15. Buxgalterning telefon raqamlari	
1.16. Buxgalterning STIR	
1.17. Buxgalterning elektron pochta manzili	
1.18. Bank rekvizitlari (Bank filialining nomi)	
1.19. Bank rekvizitlari (Bank filialining nomi)	
1.20. Bank rekvizitlari (Tashkilotning STIR)	
1.21. Bank rekvizitlari (OKED)	
1.22. Bank rekvizitlari (OKONX)	
1.23. Hududiy tanlovlardagi g'olibligi	
1.24. Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi grant va ijtimoiy buyurtmalarida g'olibligi	
1.25. Xorijiy grant loyihalari	

1.26. Ustav (Nizom)da belgilangan vazifalari						
1.27. Tashkilotning Ustavini (Nizom) yuklash						
1.28. Tashkilotning balans hisobotini yuklash						
2. LOYIHANING MAZMUNI						
2.1. Buyurtmachi davlat organining nomi						
2.2. Buyurtma mavzusi						
2.3. Loyiha nomi						
2.4. Loyiha davomiyligi (oy)						
2.5. Loyiha qamrab oladigan maqsadli guruh toifasi						
2.6. So‘ralayotgan mablag‘ miqdori (so‘mda)						
2.7. Shaxsiy ulush miqdori (so‘mda)						
2.8. Hamkorlar ulushi miqdori (so‘mda)						
2.9. Hal etiladigan muammolar (masalalar)						
2.10. Muammolar (masalalar)ni hal etish usullari va mexanizmlari						
2.11. Erishiladigan natijalar						
3. LOYIHANING UMUMIY BYUDJETI shu jumladan mavjud qo‘shimcha moliyalashtirish manbalari (so‘mda, qisqartirmagan holda) <i>*Izoh: Parlament komissiyasining qarori bilan tasdiqlangan “Davlat ijtimoiy buyurtmasi ajratishning tartibi va shartlari to‘g‘risida”gi Nizomiga asosan: oylik ish haqi, moddiy texnik bazasini mustahkamlash va boshqa xarajatlar(aloqa, internet, kommunal, bank xizmati, xizmat safari xarajatlari)ning miqdori jami so‘ralgan mablag‘ning 30 foizidan oshmaganligi; loyiha byudjetida so‘ralgan mablag‘ning kamida 70 foizi ijtimoiy va umum ahamiyatga molik maqsadlarga yo‘naltirilganligi;</i>						
1. Loyiha maqsadlariga mo‘ljallangan xarajatlar (umumiy mablag‘ning 70 foizi)						
№	Xarajat turi	Xarajat miqdori (ta)	Xarajat summasi (so‘m)	Moliyalashtirish manbasi		
				Fondan so‘ralayotgan mablag‘	Shaxsiy ulush	Hamkor ulushi
Jami						
4. Loyiha bilan bog‘liq boshqa xarajatlar (umumiy mablag‘ning 30 foizi)						
№	Xarajat turi			Moliyalashtirish manbasi		

		Xarajat miqdori (ta)	Xarajat summasi (so'm)	Fondan so'ralayotgan mablag'	Shaxsiy ulush	Hamkor ulushi
	Loyiha jamoasining ish haqi					
	Ijtimoiy soliq (shaxsiy yoki hamkor ulushi hisobidan to'lanadi)					
№	Boshqa xarajatlar					
	-moddiy-texnika xaridi					
	-kommunal to'lovlar					
	-bank to'lovlari					
	-xizmat safarlari					
	-internet va boshqa aloqa xizmatlari					
Jami:						
Hammasi:						
4. LOYIHANING ISH REJASI						
№	Hal etiladigan vazifa	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddati	Kutilayotgan natijalar		



Davlat ijtimoiy buyurtmasini berish haqida
_____ - sonli

SERTIFIKAT

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi
Fuqarolik jamiyati institutlarini
qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'larini
boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasi**

_____ga
(fuqarolik jamiyati instituti nomi)

“ _____ ”

nomli loyihani bajarish uchun davlat ijtimoiy buyurtmasini ajratadi.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi
Fuqarolik jamiyati institutlarini
qo'llab-quvvatlash jamoat fondi**

_____ - 202__ yil
(hudud)

**Ijtimoiy buyurtma berish to'g'risidagi uch tomonlama
SHARTNOMA**

Toshkent shahri

“ _____ ” _____ 202__ yil

SHARTNOMA RAQAMI: _____

IJTIMOIIY BUYURTMA MIQDORI: so'm ()

IJTIMOIIY BUYURTMANI AMALGA OSHIRISH MUDDATI

IJTIMOIIY BUYURTMA OLUVCHI NOMLANISHI:

MANZIL:

TELEFON RAQAMI:

ELEKTRON MANZIL:

TASHKILOT RAHBARI:

TASHKILOT BOSH HISOBCHISI:

REKVIZITLAR:

H/R:

BANK:

MFO:

STIR:

OKED:

* O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni 21-moddasiga muvofiq davlat ijtimoiy buyurtmasi davlat organi va nodavlat notijorat tashkiloti yoki fuqarolik jamiyatining boshqa instituti o'rtasida shartnoma tuzish yo'li bilan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun ishlar bajarish yoki tadbirlar o'tkazishga doir davlat topshirig'idan iborat bo'ladi.

I. ASOSIY QOIDALAR

1.1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi (keyingi o'rinlarda "Fond" deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida harakat qiluvchi direktor _____ bir tomondan, _____ (keyingi o'rinlarda "Davlat buyurtmachisi" deb yuritiladi) ikkinchi tomondan va "_____" fuqarolik jamiyati instituti (keyingi matnda "Ijtimoiy buyurtma ijrochisi" deb yuritiladi) nomidan Ustav yoki Nizom asosida harakat qiluvchi (tashkilot rahbari) _____ uchinchi tomondan (birgalikda Tomonlar deb ataladi) ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

II. SHARTNOMANING MAZMUNI

2.1. Mazkur shartnoma Ijtimoiy buyurtma ijrochisining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasining (keyingi matnda Parlament komissiyasi deb yuritiladi) qarori bilan g'olib deb topilgan "_____" nomli davlat ijtimoiy buyurtmasi loyihasini amalga oshirishga, ushbu loyiha doirasida belgilangan ishlarni bajarishga qaratilgan. (Parlament komissiyasining 202__ yil __ _____ dagi ____ - sonli qarori)

2.2. Ijtimoiy buyurtmani amalga oshirish uchun ajratilgan mablag'lardan faqat loyihada ko'rsatilgan maqsadlarda va xarajatlar smetasiga muvofiq foydalanish mumkin (1-ilova). Loyiha shartnomada belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid xatti-harakatlar sodir etgan taqdirda, ijtimoiy buyurtma oluvchi shaxs javobgar bo'ladi.

2.3. Loyihani moliyaviy qo'llab-quvvatlash ijtimoiy buyurtma ijrochisining hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

2.4. Parlament komissiyasiga taqdim etilgan loyiha, xarajatlar smetasi (1-ilova) va loyihani amalga oshirish ish rejasi (2-ilova) ushbu shartnomaning asosi sifatida qabul qilinadi va shartnomaga ilova qilinadi.

2.5. Davlat buyurtmachisi Ijtimoiy buyurtma ijrochisining faoliyatiga aralashmasligi hamda qonunchilikda va ushbu shartnomada belgilanmagan majburiyatlarni bajarishni talab qilmasligi lozim.

2.6. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi ushbu shartnomaning xarajatlar smetasidan maqsadsiz foydalansa, shuningdek, ushbu shartnoma yoki qonunchilik hujjatlari talablarini buzgan taqdirda, ijtimoiy buyurtma mablag'larini Fondning talabiga muvofiq 2.7-bandda ko'rsatilgan hisob raqamiga 3 ish kunidan kechiktirmasdan to'liq qaytarishi shart.

2.7. Loyiha bajarilgandan keyin foydalanilmagan mablag'lar loyihaning rasmiy tugash sanasidan keyin 10 kundan ortiq bo'lmagan muddatda ijtimoiy buyurtma ijrochisi tomonidan Fondga qaytariladi (hisob raqami _____, MFO _____, STIR _____, Bank nomi).

III. TOMONLARNING HUQUQLARI

3.1. Fondning huquqlari:

3.1.1. Ijtimoiy buyurtma ijrochisidan ijtimoiy buyurtma ajratishga bog'liq hujjatlarning asl nusxalarini talab qilish;

3.1.2. Ijtimoiy buyurtma ijrosining bajarilishi yuzasidan kameral va hujjatli monitoringini o'tkazish;

3.1.3. Monitoring natijalari bo'yicha moliyaviy qonunbuzarliklar yoki ajratilgan mablag'lardan maqsadsiz foydalanish aniqlansa, Fond mablag'larni qaytartirish huquqiga ega;

3.1.4. Parlament komissiyasi qarori bo'yicha tekshirishni amalga oshirish;

3.1.5. Fond ijtimoiy buyurtma bilan bog'liq har qanday ma'lumot va hujjatlarni Ijtimoiy buyurtma ijrochisidan talab qilishga haqli;

3.1.6. Quyidagilardan birortasi aniqlanganda, Fond ijtimoiy buyurtma mablag'larini to'liq qaytarib olishga haqli:

- ushbu shartnoma shartlari yoki O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablari buzilganda;
- loyihada ko'rsatilgan maqsad yoki vazifalarni bajarishni ta'minlashga erisha olmaganida;
- ijtimoiy buyurtma loyihasi mablag'laridan maqsadsiz foydalanishni amalga oshirganda;
- soxta moliyaviy hisobot va hujjatlarni, bila turib yolg'on, soxtalashtirilgan hujjatlarni yoki tashkilot to'g'risidagi ushbu shartnomani bekor qilish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi ma'lumotlarni taqdim etganda;
- Ijtimoiy buyurtma ijrochisi moliyaviy nochor ahvolga tushgan yoki tugatilayotganda.

3.1.7. Agar moliyaviy hisobot kechiktirilsa yoki noto‘g‘ri taqdim etilgan (tasdiqlangan shakllarga nomuvofiq) hisobotlar tufayli Fond tomonidan qabul qilinmasa, shuningdek hisobot davri oxirida Ijtimoiy buyurtma ijrochisida sezilarli mablag‘lar qoldig‘i mavjud bo‘lsa, Fond moliyalashtirishni kechiktirishi yoki moliyalashtirishni rad etishi mumkin.

3.1.8. Parlament komissiyasi va Fond tomonidan belgilanadigan vakolatli organ ijtimoiy buyurtma hisobiga sotib olingan moddiy-tovar boyliklar va jihozlarni sanoqdan o‘tkazish hamda saqlanganini tekshirish huquqiga ega.

3.2. Davlat buyurmachisining huquqlari:

3.2.1. Ijtimoiy buyurtma ijrochisidan shartnomaga muvofiq o‘z majburiyatlarini lozim darajada bajarilishini talab qilib olish;

3.2.2. Ijtimoiy buyurtma ijrochisining faoliyatiga aralashmagan holda, amalga oshirilayotgan ishlarni kuzatib borish;

3.2.3. Ijtimoiy buyurtma ijrochisiga loyihani amalga oshirish bilan bog‘liq takliflar, tavsiyalar va maslahatlar berish;

3.2.4. Ijtimoiy buyurtma doirasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risidagi hisobotlarni olish va zarurat tug‘ilganda qo‘shimcha ma‘lumotlar talab qilish, shuningdek, kamchiliklar aniqlangan taqdirda tegishli takliflar berish;

3.2.5. Davlat buyurmachisi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

3.3. Ijtimoiy buyurtma ijrochisining huquqlari:

3.3.1. Ijtimoiy buyurtma shartnomasi bo‘yicha ajratilgan mablag‘larni tasdiqlangan xarajatlar smetasi doirasida Ijtimoiy buyurtma ijrochisi tomonidan tasdiqlangan xarajatlar yoyilmasiga muvofiq erkin tasarruf etish;

3.3.2. Xarajatlar smetasining moddalarida belgilangan miqdordan ortiq, tegishli modda hajmining 5 foiziga teng miqdorigacha (“Ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar” va YAIT moddalarida tasdiqlangan miqdorlar bundan mustasno) boshqa moddalardan iqtisod qilingan mablag‘lar hisobidan, Parlament komissiyasining oldindan ruxsatini olmasdan sarflash;

3.3.3. Agar Ijtimoiy buyurtma ijrochisi bir vaqtning o‘zida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning boshqa turlarini oluvchi bo‘lsa, u holda u davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash turlarini amalga oshirishda ishtirok etgan xodimlarning belgilangan ish haqining 30 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda qo‘shimcha haq berish huquqiga ega;

3.3.4. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi shartnoma doirasidagi barcha operatsiyalarni hisobga olish maqsadida maxsus bank hisob raqamini ochish;

3.3.5. Ijtimoiy buyurtmani ijro etish jarayonida davlat va nodavlat tashkilotlari bilan mustaqil ravishda sheriklik munosabatlarini o‘rnatish;

3.3.6. Loyihani amalga oshirish jarayonini bosma va elektron ommaviy axborot vositalarida keng yoritish;

3.3.7. Oliy ta‘lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv organlari vakillarini mutaxassis sifatida jalb qilish;

3.3.8. Ijtimoiy buyurtma mablag‘lari hisobidan xarid qilingan uskunalar va boshqa moddiy-texnika vositalariga egalik qilish va butligini saqlash.

IV. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

4.1. Fondning majburiyatlari.

4.1.1. Ijtimoiy buyurtma ijrochisining hisob raqamiga mablag‘larni moliyalashtirish jadvaliga (1-ilova) muvofiq o‘z vaqtida o‘tkazishni amalga oshirish.

4.1.2. Ijtimoiy buyurtma ijrochisiga ijtimoiy buyurtmani amalga oshirish bo‘yicha maslahat va taqdimnomalar berish.

4.1.3. Ushbu shartnoma shartlariga va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya etish.

4.2. Davlat buyurmachisining majburiyatlari.

4.2.1. Ijtimoiy buyurtma doirasida o‘tkaziladigan tadbirlarda Davlat buyurmachisi vakillarining ishtirokini ta‘minlash;

4.2.2. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi tomonidan taqdim kilinadigan hisobotlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish;

4.2.3. Ijtimoiy buyurtma ijrosini qabul qilganligi yuzasidan Fondga axborot berish.

4.3. Ijtimoiy buyurtma ijrochisining majburiyatlari.

4.3.1. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi Fond ko'magida tadbir o'tkazilganligi (yoki kitob nashr etilganligi) qayd etilgan barcha nashrlari, maqola, monografiya va boshqalarning bittadan nusxasini Fondga taqdim etishi shart.

4.3.2. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi ijtimoiy buyurtmaning ushbu shartnoma shartlariga muvofiq, Fond va Parlament komissiyasining normativ hujjatlariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga talablariga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlashi shart;

4.3.3. Tasdiqlangan xarajatlar smetasidagi tegishli moddalarga o'zgartirish yoki tuzatish kiritish zarurati paydo bo'lgan taqdirda (masalan, uskunalar va boshqa moddiy-texnika vositalarining narxlarini o'zgarishi va shu kabilar), Ijtimoiy buyurtma ijrochisi ushbu o'zgarishlarni yozma ravishda asoslashi va ushbu o'zgarishlarni Fond bilan muvofiqlashtirishi shart. Zarurat bo'lganda, mazkur masala Parlament komissiyasi muhokamasiga taqdim etiladi.

4.3.4. Oldindan Parlament komissiyasi yoki Fondan yozma ruxsat olish quyidagi hollarda talab qilinadi:

- ish haqi va gonorar to'lovlarini to'lash bo'yicha qayta taqsimlash, ularning miqdoridan qat'iy nazar;

- agar ijtimoiy buyurtma ijrochisi tasdiqlangan xarajatlar smetasida nazarda tutilmagan xarajatlarni amalga oshirishi yoki 3.3.2-bandda nazarda tutilgan miqdordan yuqori bo'lgan xarajatlar hajmini qayta ko'rib chiqishi zarur bo'lsa.

4.3.5. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi o'z maqomini qayta tashkil etish, rekvizitlar, yuridik manzil, bankdagi hisob raqami o'zgarishi (30 kundan kechiktirmasdan), rahbar yoki bosh hisobchi almashganda bunday o'zgarish yuz berishidan 3 kun avval Fondni yozma ravishda xabardor qiladi.

4.3.6. Ijtimoiy buyurtma mablag'larini muqaddam foydalanishda bo'lgan tovarlar va uskunalarni sotib olish uchun sarflash mumkin emas.

Ijtimoiy buyurtma mablag'lari evaziga sotib olingan asbob-uskunalar Parlament komissiyasining yozma ruxsatisiz, agar loyihada va qonun hujjatlarida boshqacha nazarda tutilmagan bo'lsa, boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslarga o'tkazilishi mumkin emas.

4.3.7. Tovarlar (ishlar va xizmatlar)ni sotib olishni O'zbekiston Respublikasining "Davlat haridlari to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlarida korporativ buyurtmachilarga belgilangan talablarga muvofiq amalga oshirishi shart.

4.3.8. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi ijtimoiy buyurtma mablag'lari hisobiga sotib olingan asbob-uskunalarining to'g'ri hisobga olinishi ustidan nazoratni ta'minlaydi va sanoqdan o'tkazish orqali ushbu buxgalteriya ma'lumotlarini muntazam ravishda tekshiradi. Ijtimoiy buyurtma mablag'lari hisobiga sotib olingan asbob-uskunalarni hisobga olish Milliy buxgalteriya standartiga muvofiq aniqlik bilan amalga oshirilishi va quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak: a) uskunaning nomi; b) sanoq raqami; v) uskunaning joylashgan joyi va holati; g) ushbu ma'lumotni tasdiqlash; d) uskunalar birligini sotib olish narxi va sanasi.

4.3.9. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi ushbu shartnoma bo'yicha ijtimoiy buyurtmani olish va undan foydalanish bilan bog'liq soliq majburiyatlari uchun amaldagi qonunchilikka muvofiq to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi;

4.3.10. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi amortizatsiya ajratmalarini o'z vaqtida amalga oshirish va ijtimoiy buyurtma mablag'lari hisobiga sotib olingan uskunalarni qayta baholash bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi;

4.3.11. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi zarur hollarda ijtimoiy buyurtma bilan bog'liq hujjatlarni Fondga tezkorlik bilan taqdim etish, shuningdek boshqa har qanday yordam ko'rsatish, shu jumladan Fondning talabiga binoan Fond mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish nazorati (monitoringi) doirasida ushbu loyiha ijrochilari bilan suhbat o'tkazish imkoniyatini o'z vaqtida ta'minlash majburiyatini oladi.

4.3.12. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi o'z vaqtida ijtimoiy buyurtma loyihasining choraklik, yarim yillik va yillik moliyaviy-tahliliy hisobotlarini tasdiqlangan shaklga muvofiq holda Fondga taqdim etib boradi.

4.3.13. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi ijtimoiy buyurtma bilan bog'liq barcha buxgalteriya hujjatlari (shartnomalar, to'lov hujjatlari, buyruqlar, hisob-fakturalar va boshqalar)ni amaldagi qonunchilikka muvofiq yuritishi shart.

V. AUDIT

5.1. Fond Ijtimoiy buyurtma ijrochisidan moliyalashtirilgan mablag'larini tekshiruvdan o'tkazish (audit) va yakuniy tekshiruv xulosasini undan talab qilishga haqli. Ijtimoiy buyurtma ijrochisining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish uchun auditorlik tashkilotini tanlash huquqini Fond o'zida saqlab qoladi.

5.2. Agar Ijtimoiy buyurtma ijrochisi, Fond bilan kelishilgan holda, mustaqil ravishda auditorlik tashkilotini tanlash uchun tender o'tkazmoqchi bo'lsa, Fond yoki Parlament komissiyasining talabiga binoan Fondning yozma talabi olingan kundan boshlab 3 ish kuni ichida auditor tekshiruvini tashkil etish choralarini ko'rishi shart.

VI. HISOBOT.

6.1. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi hisobot davridan keyingi birinchi oyning 5-kunidan kechiktirmay Fondga choraklik, yarim yillik va yillik moliyaviy-tahliliy hisobotlarni tasdiqlangan shaklga muvofiq holda taqdim etishi shart, xususan:

- joylashtirilgan ijtimoiy buyurtma faoliyati hamda maqsadlar va kutilayotgan natijalarga erishishdagi yutuq batafsil tavsiflangan tahliliy hisobotlar, ushbu hisobotlar fondga yarim yil, yil oxirida va loyiha oxirida topshirilishi kerak;

- har chorakda va loyiha tugagandan so'ng (asoslantirilgan hujjatlar bilan birga) mablag'lardan foydalanish bo'yicha moliyaviy hisobotlar.

6.2. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi Fondga o'z vaqtida ijtimoiy buyurtma loyihasining choraklik, yarim yillik va yillik moliyaviy-tahliliy hisobotlarini tasdiqlangan shaklga muvofiq holda taqdim etmasa, Fond loyiha mablag'larini to'liq qaytarib olishni talab qilishga haqli.

VII. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. Ijtimoiy buyurtma ijrochisining moliyaviy va boshqa faoliyati uchun Fond uchinchi shaxslar oldida javobgar emas.

7.2. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan taqdirda tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.

VIII. IJTIMOY BUYURTMA IJROSINI QABUL QILISH TARTIBI

8.1. Fondning ijro etuvchi apparati barcha yakuniy hisobotlarni olgandan so'ng, ushbu ijtimoiy buyurtma shartnomasi bo'yicha majburiyatlarning bajarilish darajasini aniqlashni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy buyurtmaning bajarilishi qabul qilish jarayonini amalga oshiradi.

8.2. Ijtimoiy buyurtma ijrochi tashkiloti tugatilgan yoki moliyaviy nochor bo'lgan taqdirda, ushbu shartnomada qayd etilgan tashkilot (loyiha) rahbari va bosh buxgalter ushbu shartnoma shartlariga muvofiq ijtimoiy buyurtmani yakunlash uchun zarur bo'lgan barcha harakatlarni amalga oshirish uchun shaxsan javobgardir.

IX. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

9.1. Tomonlar o'rtasida mazkur shartnomadan kelib chiqadigan har qanday nizo, nizoga tegishli yoki u bilan bog'liq bo'lgan har qanday masala, shu jumladan nizoning mavjudligi, qonuniyligi, talqin qilinishi, ijro etilishi, buzilishi yoki bekor qilinishi, shuningdek muhokama, imzolash yoki ijro etish jarayonida yuzaga keladigan ushbu shartnomaga va qonunchilikka asoslangan har qanday talab yoki e'tiroz amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq holda faqat sud orqali hal etiladi.

X. FORS-MAJOR

10.1. Ushbu Shartnomaga asosan majburiyatlarni bajarmaslik holatlari yengib bo'lmay kuchlar (fors-major) holatlari natijasida vujudga kelganda Tomonlar o'z majburiyatlarini bajarishdan qisman yoki to'liq ozod bo'ladilar.

10.2. Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlariga Tomonlarning irodasi va faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (pandemiya, zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni

taqiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda Tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlar kiradi.

10.3. Tomonlar favqulodda vaziyatlar va ularning yo'qotishlarini tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilishi mumkin. Tegishli vakolatli organ tomonidan berilgan tegishli hujjat fors-major holatlarining mavjudligi va davomiyligini yetarli darajada tasdiqlaydi.

10.4. Tomonlardan qaysi biri uchun shartnoma majburiyatlarini yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari sababli bajarmaslik ma'lum bo'lsa, darhol ikkinchi va uchinchi tomonga bu haqidagi ma'lumotlarni 10 kun ichida dalillar bilan taqdim etishi lozim.

XI. BOSHQA QOIDALAR

11.1. Ushbu shartnoma imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajarmaguncha amal qiladi. Ushbu shartnoma tomonlarning kelishuvi bilan o'zgartirilishi yoki to'ldirilishi mumkin, ular belgilangan tartibda yozma ravishda rasmiylashtirilishi kerak.

11.2. Ushbu shartnoma o'zbek tilida 3 (ikki) nusxada imzolangan: Fond, Davlat buyurtmachisi va Ijtimoiy buyurtma ijrochisi uchun. Ularning har biri asl nusxa hisoblanadi va bir xil yuridik kuchga ega.

11.3. Ushbu shartnomada ko'rsatilgan qo'shimchalar va boshqa hujjatlar ushbu shartnomaning ajralmas qismidir.

XII. MAS'UL SHAXSLAR

12.1. Fond ijtimoiy buyurtma bo'yicha barcha yozishmalarni Ijtimoiy buyurtma ijrochisi rahbariga yuboradi.

12.2. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi ijtimoiy buyurtmani amalga oshirish bilan bog'liq barcha hisobotlar, so'rovlar va boshqa yozishmalarni Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 9-uy, 100078 manzil bo'yicha Fondga yuborishi shart (tel .(78) 238-28-23, 238-28-16, 238-27-42).

XIII. TOMONLARNING IMZOLARI

13.1. Ushbu shartnomada nazarda tutilgan shartlarning, shu jumladan ilovalarning majburiyligi to'g'risida kelishuvga erishilgan.

**O'zbekiston Respublikasi Oliy
Majlisi huzuridagi Fuqarolik
jamiyati institutlarini qo'llab-
quvvatlash jamoat fondi**

Direktor

MO'

Davlat buyurtmachisi
:

Direktor

MO'

Ijtimoiy buyurtma ijrochisi_____

Direktor

MO'

Davlat ijtimoiy buyurtmasi berish
to'g'risidagi
202_ yil ____ ____dagi
____-sonli shartnomaga 1-ilova

“KELISHILDI

“KELISHILDI”

“TASDIQLAYMAN”

O'zbekiston Respublikasi Oliy
Majlisi huzuridagi Fuqarolik
jamiyati institutlarini qo'llab-
quvvatlash jamoat fondi

_____ .
“ ____ ” _____ 202_ y.

_____ .
“ ____ ” _____ 202_ y.

_____ .
“ ____ ” _____ 202_ y.

buyurtmasi doirasidagi
XARAJATLAR SMETASI

MOLIYALASHTIRISH JADVALI

№	“Davlat ijtimoiy buyurtmasini berish tartibi va shartlari to'g'risida”gi Nizomga asosan	Loyiha byudjeti xarajatlarning nomi	Xarajatlar turi	Ajratilgan summasi	%
I-Bo'lim					
1	Umumiy mablag'ning 40 foizigacha	<i>Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar</i>	<i>Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar</i>		
2		<i>Yagona ijtimoiy to'lov</i>	<i>12%</i>		
3		<i>Moddiy-texnik bazani mustahkamlash uchun xarajatlar</i>	<i>Asosiy vositalarni sotib olish va ta'mirlash</i>		
4		<i>Boshqa xarajatlar (aloqa, kommunal xizmat, safar va bank xarajatlari)</i>	<i>Internet va aloqa xarajati</i>		
			<i>Ijara va kommunal xizmatlari to'lovlari</i>		
			<i>Xizmat safari xarajatlari</i>		
II-Bo'lim					
5	Umumiy mablag'ning 60 foizi	<i>Tadbirlar o'tkazish uchun xarajatlar</i>	<i>Kanselyariya va xo'jalik buyumlari</i>		
			<i>Ustav faoliyatida nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish xarajatlari</i>		
Jami:					

Izoh: Har bir xarajat moddasi bo'yicha tashkilot tomonidan xarajatlar yoyilmasi taqdim etiladi

(mln. so'm)

Jami ijtimoiy buyurtma mablag'i	202_ yil I-choragi to'lovlari			202_ yil II -choragi to'lovlari			202_ yil III -choragi to'lovlari			202_ yil IV-choragi to'lovlari		
	yanv.	fev.	mar.	apr.	may.	iyun.	iyul.	avg.	sen.	okt.	noya.	dek.

Bosh hisobchi: _____

Davlat ijtimoiy buyurtmasi berish
to'g'risidagi 202_ yil __ ____dagi
____-sonli shartnomaga 2-ilova

“KELISHILDI”		“KELISHILDI”	“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi			_____

_____.			
“ ” 202_ y.			“ ” 202_ y.

Davlat ijtimoiy buyurtmasi shaklida qo‘llab-quvvatlanadigan _____ning
202_ yilga mo‘ljallangan faoliyatining
MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI

T/r	202_ yilga mo‘ljallangan (erishishi zarur bo‘lgan) asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari	Muddati
1.		
2.		

Davlat ijtimoiy buyurtmasi berish
to'g'risidagi 202_ yil ____dagi
____-sonli shartnomaga 3-ilova

Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi tomonidan _____ ga 202_ yil uchun ajratilgan davlat ijtimoiy buyurtmasi mablag'larini sarflanishi
to'g'risida
HISOBOT

№	Xarajatlar moddasining nomi	Smeta bo'yicha reja	Kassa xarajat	Haqiqiy xarajat	Farqi		Yil yakuniga ko'ra Jamoat fondiga qaytarilgan mablag'
					Rejaga nisbatan kassa xarajati	Rejaga nisbatan haqiqiy xarajati	
1	Oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar						
2	Yagona ijtimoiy to'lov						
3	Xizmat safari xarajatlari						
4	Ijara va kommunal to'lovlar						
5	Aloqa va internet xarajatlari						
6	Asosiy vositalar va ularni remont xarajatlari						
7	Yoqilg'i moylash materiallari						
8	Kanselyariya va xo'jalik mollari						
9	Ustav faoliyatida ko'rsatilgan tadbirlar o'tkazish xarajatlari						
10	Boshqa xarajatlar						
Jami							

1-2. Oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar

№	F.I.Sh	Lavozim	Smeta bo'yicha reja	Kassa xarajat	Haqiqiy xarajat
1					
1-gurux jami xarajat					
Yagona ijtimoiy to'lov (12%)					
Jami:					

3. Xizmat safari xarajatlari

№	F.I.Sh	Lavozim	Xizmat safariga yuborilgan hudud	Safar kuni	Smeta bo'yicha reja	Kassa xarajat	Haqiqiy xarajat	Shundan		
								Yo'l puli	Mehmonxona xarajati	Kunlik xarajat

1										
Jami:										

4. Ijara va kommunal to'lovlar

№	Kommunal xizmat turlari	O'lchov birligi	Shartnoma/smeta bo'yicha reja		Kassa xarajat		Haqiqiy xarajat	
			Natura	Summasi	Natura	Summasi	Natura	Summasi
1								
Jami:								

№	Ijara obyekti nomi	Shartnoma/smeta bo'yicha reja		Kassa xarajat	Haqiqiy xarajat
		Sanasi	Summasi		
1					
Jami:					

5. Aloqa va internet xarajatlari

№	Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot nomi	Xizmat nomi	Shartnoma/smeta bo'yicha reja		Kassa xarajat	Haqiqiy xarajat
			Sanasi	Summasi		
1						
Jami:						

6. Asosiy vositalar va ularni remont xarajatlari

№	Yetkazib beruvchi tashkilot nomi	Tovar nomi	O'lchov birligi	Soni	Shartnoma/smeta bo'yicha reja		Kassa xarajat	Haqiqiy xarajat
					Sanasi	Summasi		
1								
Jami:								

7. Yoqilg'i moylash materiallari

№	Transport vositasi nomi	Davlat raqami	Biriktirilgan shaxs	Smeta bo'yicha reja		Kassa xarajat		Haqiqiy xarajat	
				Litr	Summasi	Litr	Summasi	Litr	Summasi
1									
Jami:									

8. Kanselyariya va xo'jalik mollari

№	Yetkazib beruvchi tashkilot nomi	Tovar nomi	O'lchov birligi	Soni	Shartnoma/smeta bo'yicha reja		Kassa xarajat	Haqiqiy xarajat
					Sanasi	Summasi		
1								
Jami:								

9. Ustav faoliyatida ko'rsatilgan tadbirlar o'tkazish xarajatlari

№	Tadbir nomi	Yetkazib beruvchi nomi	Tovar, ish va xizmat nomi	Soni	Shartnoma/smeta bo'yicha reja		Kassa xarajat	Haqiqiy xarajat
					Sanasi	Summasi		
1								
Jami:								

10. Boshqa xarajatlar

№	Yetkazib beruvchi tashkilot nomi	Tovar, ish va xizmat nomi	O'lchov birligi	Soni	Shartnoma/smeta bo'yicha reja		Kassa xarajat	Haqiqiy xarajat
					Sanasi	Summasi		
1								
Jami:								

Tashkilot rahbari

Bosh hisobchi

Izoh: Hisobotlarning tashkilot rahbari, bosh hisobchisi tomonidan tasdiqlangan shakli hamda elektron shakli Jamoat fondi va uning alohida bo'linmalariga har chorakda va yil yakunida ma'lumotlarni o'sib borish tartibida kiritilgan holda taqdim etilishi lozim.

Davlat ijtimoiy buyurtmasi berish
to'g'risidagi 202_ yil __ ____dagi
____-sonli shartnomaga 4-ilova

**Davlat ijtimoiy buyurtmasi amalga oshirish bo'yicha
(_____) choraklik, yarim yillik, yillik-yakuniy
tahliliy hisobot shakli**

№	Tashkilotning ish rejasi va maksadli ko'rsatkichlari	Xisobot davrida amalga oshirilgan ishlar ma'lumoti
1.		
2.		
3.		
4.		

Tashkilot rahbari:

Tashkilot bosh hisobchisi:

Tashkilot muhri:

ning

ijtimoiy buyurtma loyihasi doirasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan

MA'LUMOT

1. Ijtimoiy buyurtma loyihasi nomi: " _____ "

2. Ijtimoiy buyurtma loyihasi amalga oshirilgan hudud: _____ (viloyat, tuman (shahar), mahalla).

3. Ijtimoiy buyurtma loyihasi muddati: _____.

4. Ijtimoiy buyurtma loyihasi summasi: jami _____ so'm. Shundan:

– fondan olingan mablag' miqdori: _____ so'm

– Ijtimoiy buyurtma oluvchi fuqarolik jamiyati instituti tomonidan kiritilgan qo'shimcha mablag' miqdori: _____ so'm

5. Ijtimoiy buyurtma loyihasi doirasida sarflangan mablag' miqdori: jami _____ so'm.

Shundan:

– bevosita loyiha maqsadiga: _____ so'm;

– loyiha jamoasining ish haqiga: _____ so'm;

– Ijtimoiy buyurtma olgan tashkilotning shaxsiy ehtiyoji uchun olingan moddiy-texnik vositalarga: _____ so'm;

– boshqa xarajatlarga: _____ so'm;

6. Ijtimoiy buyurtma loyihasi jamoasining umumiy soni: _____ nafar. Shundan:

– ish haqi olganlar: _____ nafar;

– ko'ngillilar (jamoatchilik asosida): _____ nafar.

– yosh yigit-qizlar (30 yoshgacha): _____ nafar, erkak va ayollar: _____ nafar.

7. Ijtimoiy buyurtma loyihasi doirasida xarid qilingan moddiy-texnik tovarlar:

– Ijtimoiy buyurtma olgan tashkilotning shaxsiy ehtiyoji uchun olingan moddiy-texnik vositalar: jami _____ ta, shundan: _____ ta kompyuter, _____ ta printer, _____ ta mebel jihozi va boshqa turdagi vositalarning nomi va soni ko'rsatiladi);

– loyiha maqsadiga: jami _____ ta (_____ ta tikuv mashinasi, _____ ta pishiriq pechi, _____ ta kitob, _____ ta sport anjomi, _____ ta kompyuter; _____ ta printer, _____ ta mebel jihozi va boshqa turdagi vositalarning nomi va soni ko'rsatiladi);

– loyiha doirasidagi tadbirlarga: jami _____ ta (_____ ta kanstovar mollari, _____ ta targ'ibot (tarqatma) materiallari, _____ ta banner va tadbirni o'tkazish uchun xarid qilingan boshqa vositalar nomi va soni ko'rsatiladi).

– loyiha doirasida yaratilgan platforma: to'garaklar _____ ta, jadb qilingan o'quvchilar _____ ta, joylashtirilgan ma'lumotlar _____ ta jadval ko'rinishida beriladi.

№	To'garak turlari	Qamrov soni	Joylashtirilgan ma'lumotlar soni
	Jami		

8. Ijtimoiy buyurtma loyihasi doirasida o'tkazilgan tadbirlar soni: jami ____ ta. **Unda ishtirok etganlar soni:** jami ____ nafar. **Shundan:**

– **davra suhbatlari** soni ____ ta va **ishtirokchilar soni** ____ nafar.

tadbir nomi va maqsadi: _____

ishtirokchilar tarkibi: (imkoniyati cheklangan shaxslar, kam ta'minlangan muhtoj fuqarolar va tadbirga jalb etilgan boshqa toifadagi aholi qatlami ko'rsatiladi): _____

erishilgan natija: _____

– **uchrashuvlar** soni ____ ta va **ishtirokchilar soni** ____ nafar.

tadbir nomi va maqsadi: _____

ishtirokchilar tarkibi: (imkoniyati cheklangan shaxslar, kam ta'minlangan muhtoj fuqarolar va tadbirga jalb etilgan boshqa toifadagi aholi qatlami ko'rsatiladi) _____

erishilgan natija: _____

– **seminar treninglar** soni ____ ta va **ishtirokchilar soni** ____ nafar.

tadbir nomi va maqsadi: _____

ishtirokchilar tarkibi: (imkoniyati cheklangan shaxslar, kam ta'minlangan muhtoj fuqarolar va tadbirga jalb etilgan boshqa toifadagi aholi qatlami ko'rsatiladi) _____

erishilgan natija: _____

– **sport musobaqalari** soni ____ ta va **ishtirokchilar soni** ____ nafar.

tadbir nomi va maqsadi: _____

ishtirokchilar tarkibi: (imkoniyati cheklangan shaxslar, kam ta'minlangan muhtoj fuqarolar va tadbirga jalb etilgan boshqa toifadagi aholi qatlami ko'rsatiladi) _____

erishilgan natija: _____

– **kasbga o'qitish** tadbirlari soni ____ ta, **ishtirokchilar soni** ____ nafar, **bandligi ta'minlanganlar soni** ____ nafar.

tadbir nomi va maqsadi: _____

ishtirokchilar tarkibi: (imkoniyati cheklangan shaxslar, kam ta'minlangan muhtoj fuqarolar va tadbirga jalb etilgan boshqa toifadagi aholi qatlami ko'rsatiladi) _____

erishilgan natija: _____

– boshqa shakl (format)dagi tadbirlar haqida ma'lumotlar yuqorida ko'rsatilgan tartibda yoziladi.

9. Ijtimoiy buyurtma loyihasini amalga oshirish jarayonlari yuzasidan OAVda e'lon qilingan materiallar soni: jami ____ ta. **Shundan:**

– **televideniya**da: ____ ta; **radioda**: ____ ta; **gazetada**: ____ ta; **ijtimoiy tarmoqlarda**: ____ ta va boshqa OAV nomi va soni ko'rsatiladi.

Loyiha doirasida tayyorlangan audio, video va boshqa turdagi roliklar nomi va soni:

10. Ijtimoiy buyurtma loyihasi hamkorlari: (davlat idoralari, nodavlat tashkilotlar, biznes tuzilmalar va boshqa hamkorlarning nomi va hamkorlik ko'magi haqida ma'lumot yoziladi).

11. Ijtimoiy buyurtma loyihasini amalga oshirishda vujudga kelgan muammolar va to'siqlar: (Ijtimoiy buyurtma loyihasini o'z vaqtida bajarmaslik, undan ko'zlangan natijaga erishmaganlik, ajratilgan mablag'larni maqsadsiz sarflanganligi yoki o'zlashtirilmaganligi va boshqa sabablar to'liq bayon etiladi).

12. Ijtimoiy buyurtma loyihasi doirasida erishilgan natijalar: (har bir natija to'liq va aniq statistik ma'lumotlar asosida bayon etiladi).

Misol uchun:

1. Ijtimoiy buyurtma loyihasi doirasida _____ viloyati, _____ tumanidagi _____ mahallasida yashovchi **6 ming** nafar aholi toza ichimlik suvi bilan ta'minlandi.

2. Ijtimoiy buyurtma loyihasi doirasida _____ viloyati _____ tumanidagi _____ mahallasida sport-sog'lomlashtirish markazi tashkil etildi. Ushbu markazda ____ nafar imkoniyati cheklangan xotin-qizlarga sport mashg'ulotlari bilan bepul shug'ullanish imkoniyati yaratildi.

3. Ijtimoiy buyurtma loyihasi doirasida _____ viloyati _____ tumanida joylashgan "Kola-kola" zavodining ____ nafar ishchilari donorlik uchun qon topshirishdi. Donorlik natijasida ____ nafar bemorga yordam berildi.

4. Ijtimoiy buyurtma loyihasi doirasida _____ viloyati _____ tumanidagi _____ mahallasida yashovchi tarbiyasi og'ir, jinoyatchilikka moyilligi bo'lgan ____ nafar yoshlar kasb-hunarga o'qitildi. Natijada ularning ____ nafari sartaroshxona tashkil etib, doimiy bandligi ta'minlandi.

5. Ijtimoiy buyurtma loyihasi doirasida _____ viloyatida chempionatlar tashkil etildi. Unda ____ nafar yosh sportchilar qatnashdi. Yaxshi natijaga erishgan ____ nafar sportchilar Toshkent shahrida (Dubay shahrida) o'tkazilgan respublika (yoki xalqaro) musobaqada ishtirok etdi.

6. Ijtimoiy buyurtma loyihasi doirasida _____ viloyati _____ tumanidagi _____ mahallasida "Kurash" sport turi bo'yicha to'garak tashkil etildi. To'garakka mahalliy aholining ____ nafar yigit-qizlari jalb etildi.

Izoh: Ijtimoiy buyurtma olgan fuqarolik jamiyati instituti ushbu savolnomada nazarda tutilmagan boshqa muhim masalalar haqida qo'shimcha ma'lumot taqdim etishi mumkin.

Loyiha jamoasining telefon raqamlari:

1. _____: F.I.O. va tel raqami;
2. _____: F.I.O. va tel raqami;
3. _____: F.I.O. va tel raqami.

**Ijtimoiy buyurtma ajratish to'g'risidagi uch tomonlama
SHARTNOMA**

Toshkent shahri

“ _____ ” _____ 202__ yil

SHARTNOMA RAQAMI: _____

IJTIMOY BUYURTMA MIQDORI: so'm ()

IJTIMOY BUYURTMANI AMALGA OSHIRISH MUDDATI

IJTIMOY BUYURTMA OLUVCHINING NOMI:

MANZILI:

TELEFON RAQAMI:

ELEKTRON MANZILI:

TASHKILOT RAHBARI:

TASHKILOT BOSH HISOBCHISI:

REKVIZITLAR:

H/R:

BANK:

MFO:

STIR:

OKED:

* O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni 21-moddasiga muvofiq davlat ijtimoiy buyurtmasi davlat organi va nodavlat notijorat tashkiloti yoki fuqarolik jamiyatining boshqa instituti o'rtasida shartnoma tuzish yo'li bilan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun ishlar bajarish yoki tadbirlar o'tkazishga doir davlat topshirig'idan iborat bo'ladi.

I. ASOSIY QOIDALAR

1.1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi _____ bo'linmasi (keyingi o'rinlarda "Alohida bo'linma" deb yuritiladi) nomidan Nizom asosida harakat qiluvchi boshlig'i _____ bir tomondan, _____ (keyingi o'rinlarda "Davlat buyurtmachisi" deb yuritiladi) ikkinchi tomondan va "_____" (keyingi matnda "Ijtimoiy buyurtma ijrochisi" deb yuritiladi) nomidan Ustav yoki Nizom asosida harakat qiluvchi (tashkilot rahbari) _____ uchinchi tomondan (birgalikda Tomonlar deb ataladi) ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

II. SHARTNOMANING MAZMUNI

2.1. Mazkur shartnoma Ijtimoiy buyurtma ijrochisining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi (keyingi o'rinlarda "Jamoat fondi" deb yuritiladi) mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasining (keyingi matnda Parlament komissiyasi deb yuritiladi) qarori bilan g'olib deb topilgan "_____" nomli davlat ijtimoiy buyurtmasi loyihasini amalga oshirishga, ushbu loyiha doirasida belgilangan ishlarni bajarishga qaratilgan. (Parlament komissiyasining 202__ yil __ _____dagi __ - sonli qarori)

2.2. Ijtimoiy buyurtmani amalga oshirish uchun ajratilgan mablag'lardan faqat loyihada ko'rsatilgan maqsadlarda va xarajatlar smetasiga muvofiq foydalanish mumkin (1-ilova). Loyiha shartnomada belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid xatti-harakatlar sodir etgan taqdirda, ijtimoiy buyurtma oluvchi shaxs javobgar bo'ladi.

2.3. Loyihani moliyaviy qo'llab-quvvatlash ijtimoiy buyurtma ijrochisining hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

2.4. Parlament komissiyasiga taqdim etilgan loyiha, xarajatlar smetasi (1-ilova) va loyihani amalga oshirish ish rejasi (2-ilova) ushbu shartnomaning asosi sifatida qabul qilinadi va shartnomaga ilova qilinadi.

2.5. Davlat buyurtmachisi Ijtimoiy buyurtma ijrochisining faoliyatiga aralashmasligi hamda qonunchilikda va ushbu shartnomada belgilanmagan majburiyatlarni bajarishni talab qilmasligi lozim.

2.6. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi ushbu shartnomaning xarajatlar smetasidan maqsadsiz foydalansa, shuningdek, ushbu shartnoma yoki qonunchilik hujjatlari talablarini buzgan taqdirda, ijtimoiy buyurtma mablag'larini Jamoat fondi yoki Alohida bo'linmaning talabiga muvofiq 2.7-bandda ko'rsatilgan hisob raqamiga 3 ish kunidan kechiktirmasdan to'liq qaytarishi shart.

2.7. Loyiha bajarilgandan keyin foydalanilmagan mablag'lar loyiha rasmiy tugash sanasidan keyin 10 kundan ortiq bo'lmagan muddatda ijtimoiy buyurtma ijrochisi tomonidan Fondga qaytariladi (hisob raqami _____, MFO _____, STIR _____, Bank nomi).

III. TOMONLARNING HUQUQLARI

3.1. Alohida bo'linmaning huquqlari:

3.1.1. Ijtimoiy buyurtma ijrochisidan ijtimoiy buyurtma ajratishga bog'liq hujjatlarning asl nusxalarini talab qilish;

3.1.2. Ijtimoiy buyurtma ijrosining bajarilishi yuzasidan kameral va hujjatli monitoringini o'tkazish;

3.1.3. Monitoring natijalari bo'yicha moliyaviy qonunbuzarliklar yoki ajratilgan mablag'lardan maqsadsiz foydalanish aniqlansa, Alohida bo'linma mablag'larni qaytartirish huquqiga ega;

3.1.4. Parlament komissiyasi qarori bo'yicha tekshirishni amalga oshirish;

3.1.5. Alohida bo'linma ijtimoiy buyurtma bilan bog'liq har qanday ma'lumot va hujjatlarni Ijtimoiy buyurtma ijrochisidan talab qilishga haqli;

3.1.6. Quyidagilardan birortasi aniqlanganda, Jamoat fondi yoki Alohida bo'linma ijtimoiy buyurtma mablag'larini to'liq qaytarib olishga haqli:

- ushbu shartnoma shartlari yoki O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablari buzilganda;
- loyihada ko'rsatilgan maqsad yoki vazifalarni bajarishni ta'minlashga erisha olmaganida;
- ijtimoiy buyurtma loyihasi mablag'laridan maqsadsiz foydalanishni amalga oshirilganda;
- soxta moliyaviy hisobot va hujjatlarni, bila turib yolg'on, soxtalashtirilgan hujjatlarni yoki tashkilot to'g'risidagi ushbu shartnomani bekor qilish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi ma'lumotlarni taqdim etganda;
- Ijtimoiy buyurtma ijrochisi moliyaviy nochor ahvolga tushgan yoki tugatilayotganda.

3.1.7. Agar moliyaviy hisobot kechiktirilsa yoki noto'g'ri taqdim etilgan (tasdiqlangan shakllarga nomuvofiq) hisobotlar tufayli Alohida bo'linma tomonidan qabul qilinmasa, shuningdek hisobot davri oxirida Ijtimoiy buyurtma ijrochisida sezilarli mablag'lar qoldig'i mavjud bo'lsa, Alohida bo'linma moliyalashtirishni kechiktirishi yoki moliyalashtirishni rad etishi mumkin.

3.1.8. Parlament komissiyasi, Jamoat fondi yoki Alohida bo'linma tomonidan belgilanadigan vakolatli organ ijtimoiy buyurtma hisobiga sotib olingan moddiy-tovar boyliklar va jihozlarni sanoqdan o'tkazish hamda saqlanganini tekshirish huquqiga ega.

3.2. Davlat buyurmachisining huquqlari:

3.2.1. Ijtimoiy buyurtma ijrochisidan shartnomaga muvofiq o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarilishini talab qilib olish;

3.2.2. Ijtimoiy buyurtma ijrochisining faoliyatiga aralashmagan holda, amalga oshirilayotgan ishlarni kuzatib borish;

3.2.3. Ijtimoiy buyurtma ijrochisiga loyihani amalga oshirish bilan bog'liq takliflar, tavsiyalar va maslahatlar berish;

3.2.4. Ijtimoiy buyurtma doirasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi hisobotlarni olish va zarurat tug'ilganda qo'shimcha ma'lumotlar talab qilish, shuningdek, kamchiliklar aniqlangan taqdirda tegishli takliflar berish;

3.2.5. Davlat buyurmachisi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

3.3. Ijtimoiy buyurtma ijrochisining huquqlari:

3.3.1. Ijtimoiy buyurtma shartnomasi bo'yicha ajratilgan mablag'larni tasdiqlangan xarajatlar smetasi doirasida Ijtimoiy buyurtma ijrochisi tomonidan tasdiqlangan xarajatlar yoyilmasiga muvofiq erkin tasarruf etish;

3.3.2. Xarajatlar smetasining moddalarida belgilangan miqdordan ortiq, tegishli modda hajmining 5 foiziga teng miqdorigacha ("Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar" va YAIT moddalarida tasdiqlangan miqdorlar bundan mustasno) boshqa moddalardan iqtisod qilingan mablag'lar hisobidan, Parlament komissiyasining oldindan ruxsatini olmasdan sarflash;

3.3.3. Agar Ijtimoiy buyurtma ijrochisi bir vaqtning o'zida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning boshqa turlarini oluvchi bo'lsa, u holda u davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash turlarini amalga oshirishda ishtirok etgan xodimlarning belgilangan ish haqining 30 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda qo'shimcha haq berish huquqiga ega;

3.3.4. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi shartnoma doirasidagi barcha operatsiyalarni hisobga olish maqsadida maxsus bank hisob raqamini ochish;

3.3.5. Ijtimoiy buyurtmani ijro etish jarayonida davlat va nodavlat tashkilotlari bilan mustaqil ravishda sheriklik munosabatlarini o'rnatish;

3.3.6. Loyihani amalga oshirish jarayonini bosma va elektron ommaviy axborot vositalarida keng yoritish;

3.3.7. Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv organlari vakillarini mutaxassis sifatida jalb qilish;

3.3.8. Ijtimoiy buyurtma mablag'lari hisobidan xarid qilingan uskunalar va boshqa moddiy-texnika vositalariga egalik qilish va butligini saqlash.

IV. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

4.1. Alohida bo'linmaning majburiyatlari.

4.1.1. Ijtimoiy buyurtma ijrochisining hisob raqamiga mablag'larni moliyalashtirish jadvaliga (1-ilova) muvofiq o'z vaqtida o'tkazishni amalga oshirish.

4.1.2. Ijtimoiy buyurtma ijrochisiga ijtimoiy buyurtmani amalga oshirish bo'yicha maslahat va taqdimnomalar berish.

4.1.3. Ushbu shartnoma shartlariga va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya etish.

4.2. Davlat buyurmachisining majburiyatlari.

4.2.1. Ijtimoiy buyurtma doirasida o'tkaziladigan tadbirlarda Davlat buyurmachisi vakillarining ishtirokini ta'minlash;

4.2.2. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi tomonidan taqdim kilinadigan hisobotlarni qabul qilish va ko'rib chiqish;

4.2.3. Ijtimoiy buyurtma ijrosini qabul qilganligi yuzasidan Fondga axborot berish.

4.3. Ijtimoiy buyurtma ijrochisining majburiyatlari.

4.3.1. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi Jamoat fondi ko'magida tadbir o'tkazilganligi (yoki kitob nashr etilganligi) qayd etilgan barcha nashrlari, maqola, monografiya va boshqalarning bittadan nusxasini Alohida bo'linmaga taqdim etishi shart.

4.3.2. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi ijtimoiy buyurtmaning ushbu shartnoma shartlariga muvofiq, Jamoat fondi va Parlament komissiyasining normativ hujjatlariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlashi shart;

4.3.3. Tasdiqlangan xarajatlar smetasidagi tegishli moddalarga o'zgartirish yoki tuzatish kiritish zarurati paydo bo'lgan taqdirda (masalan, uskunalar va boshqa moddiy-texnika vositalarining narxlari o'zgarishi va shu kabilar), Ijtimoiy buyurtma ijrochisi ushbu o'zgarishlarni yozma ravishda asoslashi va ushbu o'zgarishlarni Jamoat fondi va Alohida bo'linma bilan muvofiqlashtirishi shart. Zarurat bo'lganda, mazkur masala Parlament komissiyasi muhokamasiga taqdim etiladi.

4.3.4. Oldindan Parlament komissiyasi yoki Jamoat fondidan yozma ruxsat olish quyidagi hollarda talab qilinadi:

- ish haqi va gonorar to'lovlarini to'lash bo'yicha qayta taqsimlash, ularning miqdoridan qat'iy nazar;
- agar ijtimoiy buyurtma ijrochisi tasdiqlangan xarajatlar smetasida nazarda tutilmagan xarajatlarni amalga oshirishi yoki 3.3.2-bandda nazarda tutilgan miqdordan yuqori bo'lgan xarajatlar hajmini qayta ko'rib chiqishi zarur bo'lsa.

4.3.5. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi o'z maqomini qayta tashkil etishi, rekvizitlar, yuridik manzil, bankdagi hisob raqami o'zgarishi (30 kundan kechiktirmasdan), rahbar yoki bosh hisobchi almashganda bunday o'zgarish yuz berishidan 3 kun avval Alohida bo'linmani yozma ravishda xabardor qiladi.

4.3.6. Ijtimoiy buyurtma mablag'larini muqaddam foydalanishda bo'lgan tovarlar va uskunalarni sotib olish uchun sarflash mumkin emas.

Ijtimoiy buyurtma mablag'lari evaziga sotib olingan asbob-uskunalar Parlament komissiyasining yozma ruxsatisiz, agar loyihada va qonun hujjatlarida boshqacha nazarda tutilmagan bo'lsa, boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslarga o'tkazilishi mumkin emas.

4.3.7. Tovarlar (ishlar va xizmatlar)ni sotib olishni O'zbekiston Respublikasining "Davlat haridlari to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlarida korporativ buyurtmachilarga belgilangan talablarga muvofiq amalga oshirishi shart.

4.3.8. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi ijtimoiy buyurtma mablag'lari hisobiga sotib olingan asbob-uskunalarining to'g'ri hisobga olinishi ustidan nazoratni ta'minlaydi va sanoqdan o'tkazish orqali ushbu buxgalteriya ma'lumotlarini muntazam ravishda tekshiradi. Ijtimoiy buyurtma mablag'lari hisobiga sotib olingan asbob-uskunalarni hisobga olish Milliy buxgalteriya standartiga muvofiq aniqlik bilan amalga oshirilishi va quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak: a) uskunaning nomi; b) sanoq raqami; v) uskunaning joylashgan joyi va holati; g) ushbu ma'lumotni tasdiqlash; d) uskunalar birligini sotib olish narxi va sanasi.

4.3.9. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi ushbu shartnoma bo'yicha ijtimoiy buyurtmani olish va undan foydalanish bilan bog'liq soliq majburiyatlari uchun amaldagi qonunchilikka muvofiq to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi;

4.3.10. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi amortizatsiya ajratmalarini o'z vaqtida amalga oshirish va ijtimoiy buyurtma mablag'lari hisobiga sotib olingan uskunalarni qayta baholash bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi;

4.3.11. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi zarur hollarda ijtimoiy buyurtma bilan bog'liq hujjatlarni Jamoat fondi va Alohida bo'linmaga tezkorlik bilan taqdim etish, shuningdek boshqa har qanday yordam ko'rsatish, shu jumladan Jamoat fondi va Alohida bo'linmaning talabiga binoan Alohida bo'linma mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish nazorati (monitoringi) doirasida ushbu loyiha ijrochilari bilan suhbat o'tkazish imkoniyatini o'z vaqtida ta'minlash majburiyatini oladi.

4.3.12. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi o'z vaqtida ijtimoiy buyurtma loyihasining choraklik, yarim yillik va yillik moliyaviy-tahliliy hisobotlarini tasdiqlangan shaklga muvofiq holda Alohida bo'linmaga taqdim etib boradi.

4.3.13. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi ijtimoiy buyurtma bilan bog'liq barcha buxgalteriya hujjatlari (shartnomalar, to'lov hujjatlari, buyruqlar, hisob-fakturalar va boshqalar)ni amaldagi qonunchilikka muvofiq yuritishi shart.

V. AUDIT

5.1. Alohida bo‘linma Ijtimoiy buyurtma ijrochisidan moliyalashtirilgan mablag‘larini tekshiruvdan o‘tkazish (audit) va yakuniy tekshiruv xulosasini undan talab qilishga haqli. Ijtimoiy buyurtma ijrochisining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tekshirish uchun auditorlik tashkilotini tanlash huquqini Alohida bo‘linma o‘zida saqlab qoladi.

5.2. Agar Ijtimoiy buyurtma ijrochisi, Alohida bo‘linma bilan kelishilgan holda, mustaqil ravishda auditorlik tashkilotini tanlash uchun tender o‘tkazmoqchi bo‘lsa, Jamoat fondi yoki Parlament komissiyasining talabiga binoan Alohida bo‘linmaning yozma talabi olingan kundan boshlab 3 ish kuni ichida auditor tekshiruvini tashkil etish choralarini ko‘rishi shart.

VI. HISOBOT.

6.1. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi hisobot davridan keyingi birinchi oyning 5-kunidan kechiktirmay Alohida bo‘linmaga choraklik, yarim yillik va yillik moliyaviy-tahliliy hisobotlarni tasdiqlangan shaklga muvofiq holda taqdim etishi shart, xususan:

- joylashtirilgan ijtimoiy buyurtma faoliyati hamda maqsadlar va kutilayotgan natijalarga erishishdagi yutuq batafsil tavsiflangan tahliliy hisobotlar, ushbu hisobotlar fondga yarim yil, yil oxirida va loyiha oxirida topshirilishi kerak;

- har chorakda va loyiha tugagandan so‘ng (asoslantirilgan hujjatlar bilan birga) mablag‘lardan foydalanish bo‘yicha moliyaviy hisobotlar.

6.2. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi Alohida bo‘linmaga o‘z vaqtida ijtimoiy buyurtma loyihasining choraklik, yarim yillik va yillik moliyaviy-tahliliy hisobotlarini tasdiqlangan shaklga muvofiq holda taqdim etmasa, Alohida bo‘linma loyiha mablag‘larini to‘liq qaytarib olishni talab qilishga haqli.

VII. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. Ijtimoiy buyurtma ijrochisining moliyaviy va boshqa faoliyati uchun Alohida bo‘linma uchinchi shaxslar oldida javobgar emas.

7.2. Ushbu shartnoma bo‘yicha majburiyatlar bajarilmagan taqdirda tomonlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo‘ladi.

VIII. IJTIMOY BUYURTMA IJROSINI QABUL QILISH TARTIBI

8.1. Alohida bo‘linma yakuniy hisobotlarni olgandan so‘ng, ushbu ijtimoiy buyurtma shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarning bajarilish darajasini aniqlashni o‘z ichiga oluvchi ijtimoiy buyurtmaning bajarilishi qabul qilish jarayonini amalga oshiradi.

8.2. Ijtimoiy buyurtma ijrochi tashkiloti tugatilgan yoki moliyaviy nochor bo‘lgan taqdirda, ushbu shartnomada qayd etilgan tashkilot (loyiha) rahbari va bosh buxgalter ushbu shartnoma shartlariga muvofiq ijtimoiy buyurtmani yakunlash uchun zarur bo‘lgan barcha harakatlarni amalga oshirish uchun shaxsan javobgardir.

IX. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

9.1. Tomonlar o‘rtasida mazkur shartnomadan kelib chiqadigan har qanday nizo, nizoga tegishli yoki u bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday masala, shu jumladan nizoning mavjudligi, qonuniyligi, talqin qilinishi, ijro etilishi, buzilishi yoki bekor qilinishi, shuningdek muhokama, imzolash yoki ijro etish jarayonida yuzaga keladigan ushbu shartnomaga va qonunchilikka asoslangan har qanday talab yoki e‘tiroz amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq holda faqat sud orqali hal etiladi.

X. FORS-MAJOR

10.1. Ushbu Shartnomaga asosan majburiyatlarni bajarmaslik holatlari yengib bo‘lmas kuchlar (fors-major) holatlari natijasida vujudga kelganda Tomonlar o‘z majburiyatlarini bajarishdan qisman yoki to‘liq ozod bo‘ladilar.

10.2. Yengib bo‘lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlariga Tomonlarning irodasi va faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan tabiat hodisalari (pandemiya, zilzila, ko‘chki, bo‘ron, qurg‘oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko‘zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda Tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo‘lmaydigan va kutilmagan holatlar kiradi.

10.3. Tomonlar favqulodda vaziyatlar va ularning yo‘qotishlarini tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilishi mumkin. Tegishli vakolatli organ tomonidan berilgan tegishli hujjat fors-major holatlarining mavjudligi va davomiyligini yetarli darajada tasdiqlaydi.

10.4. Tomonlardan qaysi biri uchun shartnoma majburiyatlarini yengib bo‘lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari sababli bajarmaslik ma’lum bo‘lsa, darhol ikkinchi va uchinchi tomonga bu haqidagi ma’lumotlarni 10 kun ichida dalillar bilan taqdim etishi lozim.

XI. BOSHQA QOIDALAR

11.1. Ushbu shartnoma imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va tomonlar o‘z majburiyatlarini to‘liq bajarmaguncha amal qiladi. Ushbu shartnoma tomonlarning kelishuvi bilan o‘zgartirilishi yoki to‘ldirilishi mumkin, ular belgilangan tartibda yozma ravishda rasmiylashtirilishi kerak.

11.2. Ushbu shartnoma o‘zbek tilida 3 (ikki) nusxada imzolangan: Alohida bo‘linma, Davlat buyurtmachisi va Ijtimoiy buyurtma ijrochisi uchun. Ularning har biri asl nusxa hisoblanadi va bir xil yuridik kuchga ega.

11.3. Ushbu shartnomada ko‘rsatilgan qo‘shimchalar va boshqa hujjatlar ushbu shartnomaning ajralmas qismidir.

XII. MAS’UL SHAXSLAR

12.1. Alohida bo‘linma ijtimoiy buyurtma bo‘yicha barcha yozishmalarni Ijtimoiy buyurtma ijrochisi rahbariga yuboradi.

12.2. Ijtimoiy buyurtma ijrochisi ijtimoiy buyurtmani amalga oshirish bilan bog‘liq barcha hisobotlar, so‘rovlar va boshqa yozishmalarni _____, _____ ko‘chasi __-uy, _____ manzil bo‘yicha Alohida bo‘linmaga yuborishi shart (tel: _____).

XIII. TOMONLARNING IMZOLARI

13.1. Ushbu shartnomada nazarda tutilgan shartlarning, shu jumladan ilovalarning majburiyligi to‘g‘risida kelishuvga erishilgan.

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy
Majlisi huzuridagi Fuqarolik
jamiyati institutlarini qo‘llab-
quvvatlash jamoat fondi
_____ bo‘linmasi**

Boshlig‘i _____.
MO‘

Davlat buyurtmachisi
: _____

Rahbari _____.
MO‘

Ijtimoiy buyurtma ijrochisi_____

Rahbari _____.
MO‘

Davlat ijtimoiy buyurtmasi berish
to'g'risidagi 202_ yil __ __dagi
__-sonli shartnomaga 1-ilova

“KELISHILDI

“KELISHILDI”

“TASDIQLAYMAN”

O'zbekiston Respublikasi Oliy
Majlisi huzuridagi Fuqarolik
jamiyati institutlarini qo'llab-
quvvatlash jamoat fondi
_____ bo'linmasi

_____.

_____.

_____.

“__” _____ 202_ y.

“__” _____ 202_ y.

“__” _____ 202_ y.

ning 202_ yil uchun davlat ijtimoiy

**buyurtmasi doirasidagi
XARAJATLAR SMETASI**

MOLIYALASHTIRISH JADVALI

(mln. so'm)

№	Davlat ijtimoiy buyurtmasini berish tartibi va shartlari to'g'risidagi Nizomga asosan	Loyiha byudjeti xarajatlarning nomi	Xarajatlar turi	Ajratilgan summasi	%
I-Bo'lim					
1	Umumiy mablag'ning 40 foizigacha	<i>Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar</i>	<i>Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar</i>		
2		<i>Yagona ijtimoiy to'lov</i>	<i>12%</i>		
3		<i>Moddiy-texnik bazani mustahkamlash uchun xarajatlar</i>	<i>Asosiy vositalarni sotib olish va ta'mirlash</i>		
4		<i>Boshqa xarajatlar (aloqa, kommunal xizmat, safar va bank xarajatlari)</i>	<i>Internet va aloqa xarajati</i>		
			<i>Ijara va kommunal xizmatlari to'lovlari</i>		
			<i>Xizmat safari xarajatlari</i>		
II-Bo'lim					
5	Umumiy mablag'ning 60 foizi	<i>Tadbirlar o'tkazish uchun xarajatlar</i>	<i>Kanselyariya va xo'jalik buyumlari</i>		
			<i>Ustav faoliyatida nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish xarajatlari</i>		
Jami:					

Izoh: Har bir xarajat moddasi bo'yicha tashkilot tomonidan xarajatlar yoyilmasi taqdim etiladi

Jami ijtimoiy buyurtma mablag'i	202_ yil I-choragi to'lovlari			202_ yil II -choragi to'lovlari			202_ yil III -choragi to'lovlari			202_ yil IV-choragi to'lovlari		
	yanv.	fev.	mar.	apr.	may.	iyun.	iyul.	avg.	sen.	okt.	noya.	dek.

Bosh hisobchi: _____

Davlat ijtimoiy buyurtmasi berish
to'g'risidagi 202_ yil __ ____dagi
____-sonli shartnomaga 2-ilova

“KELISHILDI”		“KELISHILDI”	“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi _____bo‘linmasi			_____ _____ _____

“ ” 202_ y.			“ ” _____ 202_ y.

Davlat ijtimoiy buyurtmasi shaklida qo‘llab-quvvatlanadigan _____ning
202_ yilga mo‘ljallangan faoliyatining
MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI

T/r	202_ yilga mo‘ljallangan (erishishi zarur bo‘lgan) asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari	Muddati
3.		
4.		

Davlat ijtimoiy buyurtmasi berish
to'g'risidagi 202_ yil ____dagi
____-sonli shartnomaga 3-ilova

Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi _____ bo'linmasi tomonidan _____ ga 202_ yil uchun ajratilgan davlat ijtimoiy buyurtmasi
mablag'lari sarflanishi to'g'risida
HISOBOT

№	Xarajatlar moddasining nomi	Smeta bo'yicha reja	Kassa xarajat	Haqiqiy xarajat	Farqi		Yil yakuniga ko'ra Jamoat fondiga qaytarilgan mablag'
					Rejaga nisbatan kassa xarajati	Rejaga nisbatan haqiqiy xarajati	
1	Oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar						
2	Yagona ijtimoiy to'lov						
3	Xizmat safari xarajatlari						
4	Ijara va kommunal to'lovlar						
5	Aloqa va internet xarajatlari						
6	Asosiy vositalar va ularni remont xarajatlari						
7	Yoqilg'i moylash materiallari						
8	Kanselyariya va xo'jalik mollari						
9	Ustav faoliyatida ko'rsatilgan tadbirlar o'tkazish xarajatlari						
10	Boshqa xarajatlar						
Jami							

1-2. Oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar

№	F.I.Sh	Lavozim	Smeta bo'yicha reja	Kassa xarajat	Haqiqiy xarajat
1					
1-gurux jami xarajat					
Yagona ijtimoiy to'lov (12%)					
Jami:					

3. Xizmat safari xarajatlari

№	F.I.Sh	Lavozim	Xizmat safariga yuborilgan hudud	Safar kuni	Smeta bo'yicha reja	Kassa xarajat	Haqiqiy xarajat	Shundan		
								Yo'l puli	Mehmonxona xarajati	Kunlik xarajat

1										
Jami:										

4. Ijara va kommunal to'lovlar

№	Kommunal xizmat turlari	O'lchov birligi	Shartnoma/smeta bo'yicha reja		Kassa xarajat		Haqiqiy xarajat	
			Natura	Summasi	Natura	Summasi	Natura	Summasi
1								
Jami:								

№	Ijara obyekti nomi	Shartnoma/smeta bo'yicha reja		Kassa xarajat	Haqiqiy xarajat
		Sanasi	Summasi		
1					
Jami:					

5. Aloqa va internet xarajatlari

№	Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot nomi	Xizmat nomi	Shartnoma/smeta bo'yicha reja		Kassa xarajat	Haqiqiy xarajat
			Sanasi	Summasi		
1						
Jami:						

6. Asosiy vositalar va ularni remont xarajatlari

№	Yetkazib beruvchi tashkilot nomi	Tovar nomi	O'lchov birligi	Soni	Shartnoma/smeta bo'yicha reja		Kassa xarajat	Haqiqiy xarajat
					Sanasi	Summasi		
1								
Jami:								

7. Yoqilg'i moylash materiallari

№	Transport vositasi nomi	Davlat raqami	Biriktirilgan shaxs	Smeta bo'yicha reja		Kassa xarajat		Haqiqiy xarajat	
				Litr	Summasi	Litr	Summasi	Litr	Summasi
1									
Jami:									

8. Kanselyariya va xo'jalik mollari

№	Yetkazib beruvchi tashkilot nomi	Tovar nomi	O'lchov birligi	Soni	Shartnoma/smeta bo'yicha reja		Kassa xarajat	Haqiqiy xarajat
					Sanasi	Summasi		
1								
Jami:								

9. Ustav faoliyatida ko'rsatilgan tadbirlar o'tkazish xarajatlari

№	Tadbir nomi	Yetkazib beruvchi nomi	Tovar, ish va xizmat nomi	Soni	Shartnoma/smeta bo'yicha reja		Kassa xarajat	Haqiqiy xarajat
					Sanasi	Summasi		
1								
Jami:								

10. Boshqa xarajatlar

№	Yetkazib beruvchi tashkilot nomi	Tovar, ish va xizmat nomi	O'lchov birligi	Soni	Shartnoma/smeta bo'yicha reja		Kassa xarajat	Haqiqiy xarajat
					Sanasi	Summasi		
1								
Jami:								

Tashkilot rahbari

Bosh hisobchi

Izoh: Hisobotlarning tashkilot rahbari, bosh hisobchisi tomonidan tasdiqlangan shakli hamda elektron shakli Alohida bo'linmaga har chorakda va yil yakunida ma'lumotlarni o'sib borish tartibida kiritilgan holda taqdim etilishi lozim.

Davlat ijtimoiy buyurtmasi berish
to'g'risidagi 202_ yil __ __dagi
____-sonli shartnomaga 4-ilova

**Davlat ijtimoiy buyurtmasi amalga oshirish bo'yicha
(_____) choraklik, yarim yillik, yillik-yakuniy
tahliliy hisobot shakli**

№	Tashkilotning ish rejasi va maksadli ko'rsatkichlari	Xisobot davrida amalga oshirilgan ishlar ma'lumoti
1.		
2.		
3.		
4.		

Tashkilot rahbari:

Tashkilot bosh hisobchisi:

Tashkilot muhri:

____ning
ijtimoiy buyurtma loyihasi doirasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan
MA'LUMOT

1. Ijtimoiy buyurtma loyihasi nomi: “_____”

2. Ijtimoiy buyurtma loyihasi amalga oshirilgan hudud: _____ (viloyat, tuman
(shahar), mahalla).

3. Ijtimoiy buyurtma loyihasi muddati: _____.

4. Ijtimoiy buyurtma loyihasi summasi: jami _____ so'm. Shundan:

– **fondan olingan mablag' miqdori:** _____ so'm

– **Ijtimoiy buyurtma oluvchi fuqarolik jamiyati instituti tomonidan kiritilgan qo'shimcha
mablag' miqdori:** _____ so'm

5. Ijtimoiy buyurtma loyihasi doirasida sarflangan mablag' miqdori: jami _____ so'm.

Shundan:

– **bevosita loyiha maqsadiga:** _____ so'm;

– **loyiha jamoasining ish haqiga:** _____ so'm;

– **Ijtimoiy buyurtma olgan tashkilotning shaxsiy ehtiyoji uchun olingan moddiy-texnik
vositalarga:** _____ so'm;

– **boshqa xarajatlarga:** _____ so'm;

6. Ijtimoiy buyurtma loyihasi jamoasining umumiy soni: _____ nafar. **Shundan:**

– **ish haqi olganlar:** _____ nafar;

– **ko'ngillilar (jamoatchilik asosida):** _____ nafar.

– **yosh yigit-qizlar (30 yoshgacha):** ____ nafar, **erkak va ayollar:** ____ nafar.

7. Ijtimoiy buyurtma loyihasi doirasida xarid qilingan moddiy-texnik tovarlar:

– **Ijtimoiy buyurtma olgan tashkilotning shaxsiy ehtiyoji uchun olingan moddiy-texnik
vositalar:** jami ____ ta, shundan: ____ ta kompyuter, ____ ta printer, ____ ta mebel jihozi va boshqa
turdagi vositalarning nomi va soni ko'rsatiladi);

– **loyiha maqsadiga:** jami ____ ta (____ ta tikuv mashinasi, ____ ta pishiriq pechi, ____ ta kitob,
____ ta sport anjomi, ____ ta kompyuter; ____ ta printer, ____ ta mebel jihozi va boshqa turdagi
vositalarning nomi va soni ko'rsatiladi);

– **loyiha doirasidagi tadbirlarga:** jami ____ ta (____ ta kanstovar mollari, ____ ta targ'ibot
(tarqatma) materiallari, ____ ta banner va tadbirni o'tkazish uchun xarid qilingan boshqa vositalar nomi
va soni ko'rsatiladi).

– **loyiha doirasida yaratilgan platforma:** to'garaklar ____ ta, jadb qilingan o'quvchilar ____ ta,
joylashtirilgan ma'lumotlar ____ ta jadval ko'rinishida beriladi.

№	To'g'arak turlari	Qamrov soni	Joylashtirilgan ma'lumotlar soni
	Jami		

8. Ijtimoiy buyurtma loyihasi doirasida o'tkazilgan tadbirlar soni: jami ____ ta. **Unda ishtirok etganlar soni:** jami ____ nafar. **Shundan:**

– **davra suhbatlari** soni ____ ta va **ishtirokchilar soni** ____ nafar.

tadbir nomi va maqsadi: _____

ishtirokchilar tarkibi: (imkoniyati cheklangan shaxslar, kam ta'minlangan muhtoj fuqarolar va tadbirga jalb etilgan boshqa toifadagi aholi qatlami ko'rsatiladi): _____

erishilgan natija: _____

– **uchrashuvlar** soni ____ ta va **ishtirokchilar soni** ____ nafar.

tadbir nomi va maqsadi: _____

ishtirokchilar tarkibi: (imkoniyati cheklangan shaxslar, kam ta'minlangan muhtoj fuqarolar va tadbirga jalb etilgan boshqa toifadagi aholi qatlami ko'rsatiladi) _____

erishilgan natija: _____

– **seminar treninglar** soni ____ ta va **ishtirokchilar soni** ____ nafar.

tadbir nomi va maqsadi: _____

ishtirokchilar tarkibi: (imkoniyati cheklangan shaxslar, kam ta'minlangan muhtoj fuqarolar va tadbirga jalb etilgan boshqa toifadagi aholi qatlami ko'rsatiladi) _____

erishilgan natija: _____

– **sport musobaqalari** soni ____ ta va **ishtirokchilar soni** ____ nafar.

tadbir nomi va maqsadi: _____

ishtirokchilar tarkibi: (imkoniyati cheklangan shaxslar, kam ta'minlangan muhtoj fuqarolar va tadbirga jalb etilgan boshqa toifadagi aholi qatlami ko'rsatiladi) _____

erishilgan

natija: _____

– **kasbga o'qitish** tadbirlari soni ____ ta, **ishtirokchilar soni** ____ nafar, **bandligi ta'minlanganlar soni** ____ nafar.

maqsadi: _____

ishtirokchilar tarkibi: (imkoniyati cheklangan shaxslar, kam ta'minlangan muhtoj fuqarolar va tadbirga jalb etilgan boshqa toifadagi aholi qatlami ko'rsatiladi) _____

erishilgan

natija: _____

– boshqa shakl (format)dagi tadbirlar haqida ma'lumotlar yuqorida ko'rsatilgan tartibda yoziladi.

9. Ijtimoiy buyurtma loyihasini amalga oshirish jarayonlari yuzasidan OAVda e'lon qilingan materiallar soni: jami ____ ta. **Shundan:**

– **televideniya**da: ____ ta; **radioda**: ____ ta; **gazetada**: ____ ta; **ijtimoiy tarmoqlarda**: ____ ta va boshqa OAV nomi va soni ko'rsatiladi.

Loyiha doirasida tayyorlangan audio, video va boshqa turdagi roliklar nomi va soni:

10. Ijtimoiy buyurtma loyihasi hamkorlari: (davlat idoralari, nodavlat tashkilotlar, biznes tuzilmalar va boshqa hamkorlarning nomi va hamkorlik ko'magi haqida ma'lumot yoziladi).

11. Ijtimoiy buyurtma loyihasini amalga oshirishda vujudga kelgan muammolar va to'siqlar: (Ijtimoiy buyurtma loyihasini o'z vaqtida bajarmaslik, undan ko'zlangan natijaga erishmaganlik, ajratilgan mablag'larni maqsadsiz sarflanganligi yoki o'zlashtirilmaganligi va boshqa sabablar to'liq bayon etiladi).

12. Ijtimoiy buyurtma loyihasi doirasida erishilgan natijalar: (har bir natija to'liq va aniq statistik ma'lumotlar asosida bayon etiladi).

Misol uchun:

1. Ijtimoiy buyurtma loyihasi doirasida _____ viloyati, _____ tumanidagi _____ mahallasida yashovchi **6 ming** nafar aholi toza ichimlik suvi bilan ta'minlandi.

2. Ijtimoiy buyurtma loyihasi doirasida _____ viloyati _____ tumanidagi _____ mahallasida sport-sog'lomlashtirish markazi tashkil etildi. Ushbu markazda ____ nafar imkoniyati cheklangan xotin-qizlarga sport mashg'ulotlari bilan bepul shug'ullanish imkoniyati yaratildi.

3. Ijtimoiy buyurtma loyihasi doirasida _____ viloyati _____ tumanida joylashgan "Kola-kola" zavodining ____ nafar ishchilari donorlik uchun qon topshirishdi. Donorlik natijasida ____ nafar bemorga yordam berildi.

4. Ijtimoiy buyurtma loyihasi doirasida _____ viloyati _____ tumanidagi _____ mahallasida yashovchi tarbiyasi og'ir, jinoyatchilikka moyilligi bo'lgan ____ nafar yoshlar kasb-hunarga o'qitildi. Natijada ularning ____ nafari sartaroshxona tashkil etib, doimiy bandligi ta'minlandi.

5. Ijtimoiy buyurtma loyihasi doirasida _____ viloyatida chempionatlar tashkil etildi. Unda ____ nafar yosh sportchilar qatnashdi. Yaxshi natijaga erishgan ____ nafar sportchilar Toshkent shahrida (Dubay shahrida) o'tkazilgan respublika (yoki xalqaro) musobaqada ishtirok etdi.

6. Ijtimoiy buyurtma loyihasi doirasida _____ viloyati _____ tumanidagi _____ mahallasida "Kurash" sport turi bo'yicha to'garak tashkil etildi. To'garakka mahalliy aholining ____ nafar yigit-qizlari jalb etildi.

Izoh: Ijtimoiy buyurtma olgan fuqarolik jamiyati instituti ushbu savolnomada nazarda tutilmagan boshqa muhim masalalar haqida qo'shimcha ma'lumot taqdim etishi mumkin.

Loyiha jamoasining telefon raqamlari:

1. _____: F.I.O. va tel raqami;
2. _____: F.I.O. va tel raqami;
3. _____: F.I.O. va tel raqami.